



# VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunida boshlagan ● 2024-yilning 19-iyul, №29 (3091)

VATAN HIMOYASI  
BIZ UCHUN  
SHARAF!

15

YUTUQLAR  
E'TIROFI

8

"OYMASHA" POLIGONIDA  
HAMKORLIKDAGI  
O'QUVLAR O'TKAZILDI

4-5



Qalqon bo'lib

# asragil

bu qadim qo'rg'oningni!



IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

**BIZ**  
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz  
t.me/mv\_vatanparvar\_uz

t.me/mudofaavazirligi  
facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi  
youtube.com/c/uzarmiya



# BIRINCHI YARIM YILLIKDAGI IQTISODIY NATIJALAR VA YIL YAKUNIGACHA MO'ljALLANGAN USTUVOR VAZIFALAR MUHOKAMA QILINDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 17-iyul kuni hududlar va tarmoqlarda iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha birinchi yarim yillik tahlili hamda yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.**

Avvalo, bajarilgan ishlar qisqacha aytib o'tildi. Joriy yilning olti oyida yalpi ichki mahsulot 6,4 foizga ko'paygan. Sanoat 7,8 foizga, qurilish 10,1 foizga, xizmatlar 12,9 foizga, qishloq xo'jaligi 3,8 foizga o'sgan. Byudjet daromadlari ham 113 trillion so'mga yetib, 14 foiz oshgan.

Umuman, yil boshidan buyon respublikada yaratilgan qo'shilgan qiymat 567,4 trillion so'mga, ya'ni 45,1 milliard dollarga yetgan. Bunday raqamlar ilgari bo'lmagan.

O'tgan davrda jami kapital qo'yilmalar 229 trillion so'mni tashkil qilgan. Shundan 15,5 milliard dollari xorijiy investitsiyadir. Andijon, Buloqbohi, Qorako'l, Karmana, Davlatobod tumanlari, Namangan va Samarqand shaharlari investitsiyasi 100 million dollardan, Sharof Rashidov, Forish, Yangi Namangan, Ohangaron tumanlarida esa 70 million dollardan oshgan.

Yil boshidan 3,5 milliard dollarlik 3 mingta loyiha ishga tushirilib, 76 mingta yuqori daromadli doimiy ish o'rni yaratilgan. Tadbirkorlik uchun 82 trillion so'm kredit va 15,5 trillion so'm subsidiya berilib, 600 ming aholi biznesga jalb qilingan. Yengillik va imtiyozlar tufayli tadbirkorlarda 56,3 trillion so'm mablag' qolgan.

"Yashil" energetika sohasidagi ishlar ham natija bera boshladi. Hozirgacha ishga tushirilgan 2,4 gigavattli 10 ta quyosh va shamol elektr stansiyalari hisobiga yarim yillikda 1,6 milliard kilovatt "yashil" energiya olindi. Bu yarim milliard kubometr gazni tejash imkonini berdi.

Shu yilning o'zida mahallalarni obod qilish, bog'cha, maktab, tibbiyot, yo'l, suv, elektr kabi infratuzilmani yaxshilash uchun byudjetdan 31,5 trillion so'm ajratilgan. Bunga qo'shimcha yana 1,5 trillion so'm beriladi.

O'tgan olti oyda 18 ming 600 ta yangi xonadon qurilgan. 26 mingta oilaga 7 trillion so'mga yaqin ipoteka krediti ajratilgan. Ular bo'yicha boshlang'ich to'lov va foizni qoplash uchun 545 milliard so'm subsidiya berilgan.

Davlatimiz rahbari yig'ilishda ko'proq muammolar bo'yicha gapirib, aniq reja va vazifalarni belgilash zarurligini ta'kidladi.

- Dunyodagi og'ir sharoitga qaramasdan, barqaror iqtisodiy o'sish yo'lida aniq natijalarga erishyapmiz. Buni Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, hamkor davlatlar rahbarlari, reyting tashkilotlari, yirik investorlar ham e'tirof etyapti. Lekin bugun kamchiliklarni ko'rsatib, zaxiralarni ishga solish bo'yicha aniq vazifalarni belgilab olsak, foydali bo'ladi, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Birinchi bo'lib iqtisodiyot, moliya, soliq, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari muhokama qilindi.

Sayxunobod, Uychi, Zarbdor va G'ijduvon tajribalari natijasida olti oyda 4 mingdan ortiq mahalla sanoat va qishloq xo'jaligiga ixtisoslashtirilgan, 1 million 600 ming aholi rasmiy band bo'lgan, 712 mingta yangi daromad solig'i to'lovchi paydo bo'lgan.

Yig'ilishda bularga yangi turtki berish maqsadida qo'shimcha choralar belgilandi. Xususan, endi tuman hokimi, bank rahbari va mahalla raisi bir

bo'lib ishlash bo'yicha uch tomonlama shartnoma tuzadi. Joriy yil 1-dekabrgacha Sayxunobod tajribasi asosida xonadonlar uchun moliyaviy paket qilib beriladi. Bu orqali 495 ming aholining bandligi ta'minlanadi. Ikkinchi yarim yillikda "Oilaviy tadbirkorlik" dasturi qamrovi 1,5 barobar oshirilib, 4 trillion so'm ajratiladi.

Uychi tajribasiga asosan, tuman hokimi va bank rahbarlari tadbirkorlar bilan uchrashib, ularning biznesini kengaytirishga ko'maklashadi. Bunda hokim yer, elektr, suv, yo'l va boshqa infratuzilma masalasini, bank esa mablag'ni hal qiladi. Bu orqali yil yakunigacha 670 ming aholi bandligini ta'minlash mumkinligi aytiladi.

G'ijduvon tajribasi asosida yil yakuniga qadar mingta mahallaning o'zida ko'p qavatli sanoat binolari tashkil qilinadi. Ularga xonadonlardagi ishlab chiqarishlar ko'chiriladi. Ushbu binolarning yuqori qavatlarida ishlaydigan tadbirkorlarga soliq imtiyozlari beriladi. Bu 140 ming ish o'rini "soya"dan chiqarishga sharoit yaratadi.

Zarbdor tajribasi asosida tumanlarda sanoat, savdo, xizmat va zamonaviy agrotexnologiyalar sohasida drayver loyihalari qilinadi. Ularni amalga oshirishga bu yil qo'shimcha 500 milliard so'm ajratiladi. Bu orqali yana 150 ming ish o'rni bo'ladi.

Bosh vazirga mazkur to'rtta tajribani qo'llagan holda, yil yakunigacha 2 million 416 ming aholi bandligini ta'minlash rejasini tumanlar kesimida tasdiqlash topshirildi.

Byudjetga tushumlarni ta'minlash masalasi ham ko'rib chiqildi. Korxonalar va tadbirkorlarga ko'mak berib, daromadini oshirish orqali soliq tushumini ko'paytirish muhimligi ta'kidlandi. Tadbirkorga ortiqcha to'lov qildirgan mas'ullar jazolanishi haqida qat'iy ogohlantirildi.

Xususiy lashtirish dasturining bajarilishi, yirik korxonalarda tannarxni pasaytirish ishlari sustligi ko'rsatib o'tildi.

Endi tadbirkorlarga imtiyoz va subsidiyalarni maqsadli ko'rsatkichi bilan bir yilga berilishi, natijasiga qarab muddati uzaytirilishi yoki bekor qilinishi aytiladi.

Bu yil hududiy korxonalarda 164 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Lekin Kogon shahri, Qorovulbozor, Zafarobod va Mirzaobod tumanlarida sanoat pasaygan. Mutasaddilarga yil yakunigacha kam quvvatda ishlayotgan 2 mingta korxonani rivojlantirish vazifasi qo'yildi.

Faoliyatida tizimli kamchiliklarga yo'l qo'rgan 28 ta tuman-shahar hokimiga nisbatan intizomiy jazo ko'llandi. Qorao'zak, Taxiato'sh, Uchquduq, Toshkent, Furqat, Gurlan, Mirzaobod, Yangiariq, Mingbuloq tumanlari, G'ozg'on shahri hokimlari lavozimidan ozod qilindi.

Yig'ilish kun tartibidagi navbatdagi masalalar transport, kommunikatsiyalar, qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohalari bo'yicha bo'ldi.

Avvalo, qurilishda tannarxni pasaytirish masalasi tahlil qilindi. Yer

va qurilish materiallaridan tashqari loyihani kelishish, maxsus texnik shartlar olishdagi qiyinchiliklar ko'rsatib o'tildi. Eng katta "xufiyona iqtisodiyot" ham qurilishda. Shu bois Qurilish vazirligiga sohada tadbirkorlik uchun to'siq bo'layotgan barcha tartib-taomillarni yangilash vazifasi qo'yildi.

Sifat va tartibni kuchaytirish maqsadida Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi hukumat tarkibiga o'tkazilib, vakolatlari kengaytiriladi. Ruxsatsiz yoki loyihadan chetga chiqib qilinayotgan qurilishlar bo'yicha jazo choralarini kuchaytiriladi.

Yangi loyihalarda tadbirkorlar uchun elektr va gazdan texnik shartlar olish raqamlashtiriladi. Bunda tarmoqqa ulanish nuqtasini inson omilisiz avtomatlashgan tarzda tanlash tizimi joriy qilinadi.

Bu yilgi Investitsiya dasturida 1 ming 896 ta loyihaga 20,5 trillion so'm ajratilgan. Jumladan, 618 ta maktab, 176 ta bolalar bog'chasi, 80 ta poliklinika va 67 ta shifoxona qurilib jihozlanishi belgilangan.

2 ming 152 ta ko'p qavatli uy-joy barpo qilib, 100 mingdan ziyod xonadonni foydalanishga topshirish reja qilingan. 570 ming gektarda suv ta'minotini yaxshilash, 13 ming kilometr yo'l va 195 ta ko'prikn foydalanishga topshirish ko'zda tutilgan.

Jamoat transportida elektron to'lov tizimini to'liq joriy qilish, barcha viloyat markazlarida yo'lovchi tashishni brutto-shartnoma asosida moliyalashtirish masalalariga ham to'xtalib o'tildi.

Davlatimiz rahbari bu yo'nalishlarga birma-bir to'xtalib, kechikayotgan loyihalarni jadallashtirish bo'yicha topshiriqlar berdi. Bu ishlarning ijtimoiy ahamiyatini, ularni odamlar o'z hayotida sezishi kerakligini ta'kidladi.

Yig'ilishda investitsiya, eksport va qishloq xo'jaligidagi masalalar ham atroflicha muhokama qilindi.

O'tgan olti oyda iqtisodiyotga 15,5 milliard dollar xorijiy, shundan 14 milliard dollar to'g'ridan to'g'ri investitsiya kiritilgan. Prezidentimiz ularning natijadorligi tahliliga e'tibor qaratdi.

Uch yilda kiritilgan har bir dollar investitsiya o'rtacha uch dollar qiymat yaratgan. Yoki har 1 ming dollar xorijiy investitsiya soliq tushumini o'rtacha 600 dollarga oshirgan. Lekin ayrim tarmoqlar va hududlarda bu ko'rsatkich kam.

Mutasaddilarga kelgusi yilga reja qilingan loyihalarni shu nuqtayi nazardan birma-bir tahlil qilish topshirildi.

Avvalgi yillarda chetdan keltirilgan 183 million dollarlik 593 ta uskunani tezroq o'rnatib, ishga tushirish zarurligi aytiladi. To'liq ishlayotgan investitsiya loyihalarini "jonlantirish", muammolarini hal etish chora-tadbirlari belgilandi.

Joriy yilda sanoat zonalarini infratuzilmasi uchun 1,5 trillion so'm ajratilgan. Shuningdek, Taraqqiyot va tiklanish jamg'armasidan berilgan 650 million dollar arzon resurs, banklarda xorijdan jalb qilingan 1 milliard dollar mablag' bor. Ushbu mablag'lardan

samarali foydalanib, loyihalarni jadallashtirish zarurligi qayd etildi.

Olti oyda mahalliy lashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarish 34 foizga o'sgan. Shu o'rinda yirik investitsiya loyihalarida mahalliy mahsulotlar ulushini ko'paytirish vazifasi qo'yildi. Shu bois viloyat hokimlari va tarmoq rahbarlariga hududlardagi 50 milliard dollarlik 200 ta yirik loyihani tahlil qilib, tovar va xizmatlarni mahalliy lashtirish bo'yicha dastur ishlab chiqish topshirildi. Hududiy korxonalarining kooperatsiya portalidagi ishtirokini jonlantirish muhimligi aytiladi.

Eksport masalalari tahlil qilinarkan, tarmoq va hududlar yil boshidan 8,7 milliard dollarlik mahsulotini chetga sotgani qayd etildi. Lekin 9 ta tumanda eksport o'tgan yilgi ko'rsatkichning yarmiga ham yetmagan.

Keyingi paytlarda ko'plab davlatlar ichki bozorini himoya qilish uchun tarif va notarif to'siqlarni belgilamogda. Tegishli vazirlik va idoralarga ushbu to'siqlarni yumshatish bo'yicha kelishuvga erishish topshirildi.

Joriy yilning birinchi yarmida meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti 910 million dollarni tashkil qildi. Bu sohada birinchi galda qayta ishlangan meva-sabzavot eksportini keskin ko'paytirish kerakligi ta'kidlandi.

Hozirda saqlash, saralash va qayta ishlab quvvatlarini oshirish bo'yicha 382 ta loyiha boshlangan. Yil yakunigacha 10 ta agrologistika markazi, 230 ming tonnalik sovtukichli omborxonalar qurish rejalashtirilgan. Bular orqali meva-sabzavotni saqlash sig'imi 63 foizga yetkaziladi.

Davlatimiz rahbari bu sohada eksportni ko'paytirish uchun yangi urug' navlarini o'zimizda yaratish kerakligini ta'kidladi. Qishloq xo'jaligi vazirligiga Xitoy va Turkiya tajribasi asosida urug'chilik tizimini qayta ko'rib chiqib, ekinlar gen bankini kengaytirish bo'yicha topshiriq berildi.

75 ming gektar samarasiz bog'lar hamda 100 ming gektar past hosilli yerlar o'rinda sanoatlashgan bog' va tokzorlar barpo qilish bo'yicha uch yillik dastur ishlab chiqiladi. Bunday bog'lar uchun Qishloq xo'jaligi jamg'armasi orqali imtiyozli kredit ajratiladi.

Yig'ilishda paxta-to'qimachilik klasterlarining moliyaviy barqarorligi bilan bog'liq masalalar ham ko'rildi. Ularga berilgan imtiyozli kredit muddati 2025-yil 1-aprelgacha uzaytirilishi, bu yil paxta xaridi uchun imtiyozli kredit klasterlarning ip-yigiruv korxonalariga berilishi belgilandi. Iqtisodiy samarasiz, moliyaviy majburiyati yuqori klasterlarning maqomi qayta ko'rib chiqiladigan bo'ldi.

Unumdorlikni oshirish uchun paxtachilik va meva-sabzavotchilikda mexanizatsiya darajasini 50 foizga yetkazish vazifasi qo'yildi. Buning uchun yil oxirigacha fermer va dehqonlar yana 6,5 mingta texnika bilan ta'minlanadi.

Yig'ilishda Vazirlar Mahkamasi komplekslari rahbarlari, vazirlar va hokimlar hisobot berdi. Iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha yil yakunigacha mo'ljallangan rejalar bayon etildi.



# JADIDLAR

## MEROSI XORIJ OLIMLARI NI GOHIDA

Tarix xolisligini saqlab qolishda moddiy ashyolar, arxiv manbalari, davriy matbuot asosida tadqiq etilayotgan XIX asrning oxirlari XX asr boshlarida Turkistonda yashab ijod qilgan ma'rifatparvarlar asarlarida keltirilgan ma'lumotlar ham muhim ahamiyatga ega. Ana shu ma'lumotlarsiz biz tariximizda "qora harf"lar bilan bitilgan ulug' ma'rifatparvarlar hayotini batafsil tadqiq qila olmaymiz.



Darhaqiqat, Turkiston zaminida jadidchilik harakati XIX asrning oxirlarida maydonga kelgan, XX asr boshlarida shakllanib, tezda o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan. U ijtimoiy turmushning barcha jabhalarini qamrab olgan edi.

Jadidchilik ma'rifatchilikdan siyosiy harakatgacha bo'lgan murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Imperiya siyosati va mahalliy istibdod tufayli dunyoning iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlaridan ortda qolish xavfi, keng xalq ommasining og'ir iqtisodiy ahvoli, madaniy qoloqlik, tafakkur turg'unligi jadidlarni inqirozdan chiqishning haqiqiy vositalarini qidirishga chorladi.

**Jadidchilik faoliyatining poydevori, bir so'z bilan aytganda, usuli jadid maktabi edi.** Maqsad jamiyatni yangilash bo'lib, bu vazifani faqat yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa yetishtirish zarur. Eski, an'anaviy usulda bu ishni amalga oshirish qiyin, chunki zamon o'zgaragan. U tezkorlikni talab qiladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropa va Sharq davlatlarida iqtisodiy, ijtimoiy sohalarida sodir bo'layotgan o'zgarishlar Turkiston hayotiga turli yo'llar bilan kira boshladi. Bu davrda Rossiya chor hukumati o'zi orzu qilgan Turkistonga bostirib kirishga, imperiya chegaralarini janubga yanada kengaytirishga harakat qilardi.

Darhaqiqat, **XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda muhim tarixiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar yuz berdi.** Bu holat juda ko'p salbiy oqibatlariga olib keldi. Natijada mahalliy ziyolilar undan chiqish yo'llarini qidirdi. Ular bu o'zgarishlarni amalga oshirish uchun ma'muriyat va ta'lim tizimini isloh qilish kerakligini ta'kidladi.

Dunyoda va ayniqsa, Yaqin Sharq davlatlarida sodir bo'layotgan o'zgarishlar va Yevropa sivilizatsiyasi Rossiyaning ushbu yangi mustamlakasiga kirib borishi Turkistonda tub aholining tahqirlanishiga qarshi ma'rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga olib keldi. Bu zamonaviy ta'lim tizimi xalqni yangi sivilizatsiya va zukkolikka chorladi. U xalqni uyg'otishga, yangilangan ma'naviyatini yaxshi anglashga harakat qilardi.

Turkiston zaminidan yetishib chiqqan jadidlar ilmiy-ma'naviy merosining xorij olimlari tomonidan o'rganish ishlari biroq avvalroq boshlangan bo'lib, ularning ijodi bir nechta tillarga tarjima qilingan asarlari orqali bizga ma'lumdir.

Nazarimizda, **o'lkamizda 1905-yildan keyin ko'zga yaqqol tashlangan fikriy uyg'onish va madaniy ko'tarilish o'z**

**mohiyati bilan XVIII asr fransuz ma'rifatchiligiga ko'p jihatdan o'xshash edi.** Shu sababli bir qator fransuz olimlari tomonidan Turkistonda yuzaga kelgan ma'rifatchilik harakatiga nihoyatda qiziqish uyg'ongan. Avloniy ma'rifatchiligining ildizi ham shunga borib taqaladi. "Turkiy guliston..."da aql va ilmning, ma'naviy-axloqiy olamning favqulodda ehtiros bilan ulug'lanishi adib ma'rifatchiligining bevosita mazmunidan kelib chiqadi.

Mana u nima deb yozadi: **"Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir. Ruh ishlovchi, akd boshlovchidir..."** Muallif o'z fikrini yanada aniqroq va ravshanroq anglatish uchun shunday muqoyasa keltiradi: **"Hayvonlar o'zlariga bo'laklar tarafidin keladurgon zulm va jabrlarni shox, tish, tumshuq va tirnoqlari ila qaytarurlar. Lekin inson... aql va idroki soyasida o'ziga keladurgon zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilub, bo'ynidan boylab, iplarining uchini qo'llariga bergan insonlarning aqlidur".** Hukamolardan biri: **"Har narsa ko'paysa, arzon bo'lur, aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko'paysa, shuncha qimmatbaho bo'lur"**, demish. Adibning qarashlarida Navoiyning inson haqidagi mashhur "inson - xilqat toji" nuqtayi nazari (konsepsiyasi)ning ta'siri yaqqol sezilib turadi. Uning fikricha ham aql faqat insongagina nasib etgan sifatdir, jahonning ziynati oqil insonlardir.

Turkiston jadidlari ilmiy-ma'naviy merosi fransiyalik jadidshunos olimlar Stefan Duduangon, Aleksandr Benningsen va Shantal Lemersiye-Kelkujey tomonidan keng o'rganilgan. Stefan Duduangon **jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati, ijtimoiy-falsafiy jihatlarini, uning Markaziy Osiyo mintaqasida tutgan o'rni, jadidshunos olimlar, shuningdek Cho'lpon ijodi haqida o'zining qator ilmiy tadqiqot ishlarida to'xtalib o'tgan.** Aleksandr Benningsen va Shantal Lemersiye-Kelkujeyning ilmiy ishlarida ko'proq jadidlarning mintaq xalqining ongi, ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida olib borilgan ishlari: milliy matbuotning tashkil etilishi, gazeta va jurnallar, darsliklar yaratilishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Turkiston jadidlari ilmiy-ma'naviy merosining amerikalik olimlar tomonidan o'rganilishi esa XX asrning 50-yillaridan boshlangan. **Jadid ma'rifatparvarlik harakatlari bilan bog'liq masalalarning Yevropa va Amerika olimlari tomonidan atroflicha o'rganilishiga dastlab xalqaro miqyosdagi va sobiq sho'rolar ittifoqidagi siyosiy jarayonlar va "sovuq urush" sabab bo'lgan.** XX asr o'rtalarida AQShning Kolumbiya universitetida Markaziy Osiyo xalqlari hayoti, tarixi, madaniyatini o'rganuvchi ilmiy markaz tashkil etilgan. Uning faoliyati sekina rivojlanib, imkoniyatlari kengaya boshladi. Keyinchalik bunday tadqiqot markazi Garvard va Janubiy Kaliforniya universitetlarida ham tashkil etildi.

Turkiston jadidlari ilmiy-ma'naviy merosi ijtimoiy falsafiy jihatlarini bo'yicha E. Olvort, X. Murfi, A. Xolid tadqiqot olib borgan va bir qancha jiddiy ilmiy asarlar yaratgan.

Jadidlar ilmiy-ma'naviy merosining Amerika olimlari tomonidan

izchil o'rganish hamda ushbu ma'rifatparvarlik harakati vakillarining asarlarini ingliz tiliga tarjima qilish XX asrning 2-yarmidan boshlanib, bu jarayonda E. Olvort, D. Montgomeri, V. Fiyerman, R. Barret, J. Souper, A. Matushevskiy, E. Nabi, E. Lazzerini, B. Elizabet, I. Sirtautas, V. Xonovey, X. Murfi, A. Xolid, R. Mariya, Sh. Layone, Eduard Riz kabi olimlar faol ishtirok etgan.

**Turkiyalik olimlar XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Turkiston jadidlari ilmiy-ma'naviy merosini boshqa xorij olimlariga qaraganda salmoqliroq tadqiq qilgan.** Ayrim turk jadidshunos olimlari bevosita XX asrda Turkiston o'lkasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan xabardor bo'lsa, yana bir qancha olimlar Turkiyada tahsil olgan ma'rifatparvarlar bilan yaqindan tanish bo'lgan. Birgina Ahmad Zaki Validiyning Turkistonda Behbudiy, Munavvarqori, Cho'lpon, Mustafo Cho'qay, Nazir To'raqulov va boshqa arboblardan tanish bo'lgani manbalarda keltirilgan.

**Turkiston jadidlari ilmiy-ma'naviy merosi falsafiy jihatlarining turkiyalik olimlar tomonidan tadqiq etilishini 2 ta davrga bo'lishimiz mumkin:** mustaqillik yillarigacha hamda mustaqillik yillaridan keyingi jadidlar ilmiy-ma'naviy merosining Turkiya olimlari tomonidan o'rganilishi.

Mustaqillik yillarigacha bo'lgan turk jadidshunos olimlari: Yusuf Avchi, Abdulla Rajap Baysun, Ibrohim Yarkin, Zaki Validiy To'g'on singari olimlar Turkiston jadidlari ilmiy-ma'naviy merosining ijtimoiy-falsafiy jihatlariga o'z tadqiqotlarida alohida to'xtalib o'tadi.

1991-yildan keyin turkiyalik olimlar tomonidan Turkiston jadidlari ilmiy merosiga bo'lgan qiziqish yangi bosqichga chiqdi. Xususan, o'tgan davr mobaynida Fatma Achik, Ahad Andijon, Hakan Cho'shgunaslan, Hasan Demiro'g'lu, Sayfiddin Ershahin, Abubakir Gungo'r, Nodir Davlat va boshqa tadqiqotchilar ma'rifatparvarlar ilmiy-ma'naviy merosi borasida bir qancha tadqiqotlar olib bordi va bu jarayon bugungi kunda yangi bosqichga chiqqanini alohida aytib o'tish joiz.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki, Turkiston zaminida yuzaga kelgan ma'rifatparvarlik harakati nafaqat yurtimiz tadqiqotchilarini, balki xorijlik olimlarni ham nihoyatda qiziqitirib qo'ygan. Chunki **jadidlar Vatan, millat ozodligi uchun oddiy xalqni xat-savodli qilishga intilgan.** Jadidlar zarur paytda o'zlari istiqomat qiladigan uylarni ham yangi usul maktablariga aylantirib, yosh avlodga ta'lim-tarbiya bergan.

Haqiqatan ham qisqa davr ichida jadidlar xalqni halokat girdobidan, najot qirg'og'iga olib chiqishga muvaffaq bo'lgan. Hozirgidek informatson texnologiyalar rivojlanmagan davrda ular yaratgan ilmiy asarlar, gazeta va jurnallar, teatr va ta'lim sohasidagi olamshumul islohotlar bugungi kungi yosh avlod uchun tom ma'noda ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

**Izzatbek IBRAGIMOV,**  
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi





# “OYMASHA” POLIGONIDA

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari Qozog‘iston Respublikasida o‘tkazilgan “Birlestik – 2024” mintaqaviy xalqaro o‘quvlarida ishtirok etdi. Unda O‘zbekiston va mezbon davlatdan tashqari Ozarbayjon, Qirg‘iziston va Tojikiston harbiylari ham qatnashdi.



O‘quvlar “Oymasha” poligoni va Tokmak burnidan 2 kilometr uzoqlikdagi dengiz maydonida bo‘lib o‘tdi.

Mazkur hamkorlikdagi xalqaro o‘quvda ishtirokchi davlat harbiy bo‘linmalari qurolli mojarolarni bartaraf etish bo‘yicha qo‘shma operatsiyani o‘tkazdi. Shuningdek, boshqa davlatlar armiyasi bilan tajriba almashish, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan turli keskin vaziyatlarga doimo shay turish, eng so‘nggi texnologiyalar yordamida harbiy xizmatchilar ko‘nikmalarini muntazam ravishda oshirib borishga alohida e‘tibor qaratildi.

Jarayonlarni bevosita kuzatish uchun O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri general-leytenant Bahodir Qurbonov boshchiligidagi harbiy delegatsiya Qozog‘istonda bo‘ldi.







# hamkorlikdagi o'quvlar o'tkazildi



“Oymasha” poligonida bo'lib o'tgan mazkur harakatlar doirasida ishtirokchi davlatlarning harbiy xizmatchilari 17 ta taktik epizodni namoyish etdi.

Ularning barchasi yagona o'quv-jangovar vazifa – noqonuniy qurolli guruhlarni aniqlash, qurshab olish va yo'q qilishga yo'naltirildi.

Shartli jangarilarning tayanch hududlari, pozitsiyalari va ularning oldinga harakatlanish marshrutlarini aniqlash ishlari qiruvchi samolyotlar ekipajlari, uchuvchisiz uchish apparatlari tomonidan amalga oshirildi.

Aniqlangan nishonlar joylashuvi artilleriyadan o'qqa tutish natijasida to'xtatildi. Shartli dushman pozitsiyalaridan uchirilgan uchuvchisiz uchish apparatlari hujumlari esa ko'chma zenit raketa komplekslari va zenit quzilmalari

yordamida radioelektron kurash vositalari bilan hamkorlikda bartaraf etildi.

Operatsiyaning muvaffaqiyati oldindan qulay pozitsiyani egallagan taktik havo desanti kuchlarining jangga kiritilishi, shuningdek aralash aviatsiya guruhining zarbalari bilan rivojlantirildi. Keyingi harbiy manyovrlar Kaspiy dengizi sohilida va Tokmak burni yaqinidagi dengiz hududida davom etdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mazkur o'quvlar mintaqada harbiy hamkorlik va strategik sheriklikni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

**Podpolkovnik  
Shuhrot SA'DULLAYEV**



# KO'KDA QALQON,



Tonggi soat uch yarim, atrof qorong'i. Ishxonadan kasbdoshlar bilan mashinaga o'tirgancha Toshkent viloyatida joylashgan "Markaz" desantchilar tayyorlash bazasiga yo'l oldik. Bir soatlar chamasi yo'l yurib, manzilga yetib bordik. Desantchilar saf tortib turar, nazoratchilar esa parashyutlarni tekshirardi. Tekislikdan iborat maydon anchagina katta bo'lib, tonggi sokinlik hukm surardi. Tabiatning tonggi ko'rinishi ham insonga zavq berarkan. Allaqayerlarda hurayotgan itlar ovozi, xo'rozlarning qichqirig'i, chigirtkaning chirillashi-yu qurbaqaning qurullashi...



Olis-olislarda biz tomon uchib kelayotgan vertolyotning ovozi barcha o'y-xayollarimni tarqatib yubordi. Beixtiyor ovoz tobora kuchayib kelayotgan tomonga qararkanman, ovozidan ko'ra ancha uzoqroqda bo'lgan vertolyotga ko'zim tushdi. Ortimda esa "Safan, rostlan!" buyrug'i eshitildi. Hammasi ana shu tarzda boshlandi...

Desantchilar komandirlardan so'nggi topshiriq va ko'rsatmalarni olganidan keyin birinchi qatorda turgan guruh 500 metr chamasi nariga qo'ngan vertolyot tomon harakatlana boshladi. Barcha uchun hayajonli onlar edi. O'quv yig'iniga kelgan harbiylar orasida birinchi marotaba parashyut bilan sakrayotganlarning ham borligi yanada qiziqishimni orttirdi.

Xuddi o'zim sakrayotgandek ularning harakatlarini hayajon bilan kuzata boshladim. Birinchi guruh 600 metr balandlikdan sakradi.

Samoda 521, 522, 523, deya

parashyut halqasi tortildi. Vertolyot ortidan xuddi qo'ziqorindek parashyutlar birin-ketin ochila boshladi. Nazoratchilar uzoqni yaqinlashtiruvchi moslama orqali ularning harakatlarini kuzatarkan, ovoz kuchaytirgich orqali desantchilarga kamchiliklarini aytib turish bilan bir qatorda ularni baholab bordi.

Ikkinchi guruhning sakrash balandligi 1 200 metr etib belgilandi. Ularni parashyuti ochilmaguncha ko'rishning imkoni bo'lmadi. Desantchilar bu balandlikdan sakrar ekan, 521, 522, 523, 524, 525, deya halqani tortdi. Uchinchi guruhning sakrash balandligi 3 000 metr bo'lib, bu uzoqlikda nafaqat parashyut, balki vertolyotning o'zi ham ko'rinmas edi. Desantchilar yerdan taxminan 1 500 balandlikka kelganida ularni ko'rish imkoni paydo bo'ldi. Bunda manzara tobora boshqacha tus olgandi. Asosiy parashyut bilan birgalikda qo'shimcha parashyutlar ham ochilgan, desantchilar qo'shloq parashyutlarda belgilangan nuqtaga qarab harakatlanardi.

Tonggi soat sakkizlar atrofida sakrashlar nihoyasiga yetdi. Vertolyot ham kelgan tomoniga qarab sekin-asta ko'zdan g'oyib bo'ldi. Va yana tekislikdan iborat kengliklarga sokinlik cho'kdi...



# YERDA POSBON DESANTCHILAR



Muallif sur'atga olgan



Aslini olganda, Toshkent harbiy okrugining "Markaz" desantchilar tayyorlash bazasida doimiy ravishda soha mutaxassislarining bilim va malakalarini mustahkamlashga qaratilgan o'quv kurslari tashkil etib kelinadi. Bu galgi o'quv kursida Janubi-g'arbiy maxsus va Toshkent harbiy okrugi desantchilari ishtirok etdi. Xizmat burchini yerda ham, ko'kda ham sharaf ila ado etayotgan zabardast bu o'g'lonlar Vatan himoyasini muqaddas burch deb e'zozlaydi. Egniga harbiy libos kiyib, yurt tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashni o'zi uchun sharaf bilgan desantchilar doimiy ravishda jangovar shayligini oshirib bormoqda.

"Markaz" desantchilar tayyorlash bazasida harbiy xizmatchilar yerdagi tayyorgarlik mashqlarini bosqichma-bosqich bajarib boradi. Bunda nafaqat sakrash, yerga qo'nish, balki parashyutni to'g'ri taxlash yo'l-yo'riqlarini amalda sinovdan o'tkazib, ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Tayyorgarlik mashqlarini bajarayotgan yigitlar ham o'tgan vaqt davomida soha sir-asrorlarini mukammal o'rganadi. Har tomonlama toblanadi. Bir qarashda oddiy ko'ringan ushbu jarayonlar davomida o'g'lonlar 20 dan ortiq osondan murakkabga tomon qarab boradigan mashqni o'zlashtirishi kerak. Barchasini mukammal o'zlashtirgan harbiy xizmatchigina amaliy sakrashlarga o'tishi mumkin.

**Sherzod SHARIPOV,**  
"Vatanparvar"





Mamlakatimiz yoshlarining jamiyatdagi o'rni, bugungi kun va kelajkdagi yutuqlari davlat miqyosida qo'llab-quvvatlanib, ularga keng imkoniyatlar eshigi ochib berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ko'rsatmasi bilan Qurolli Kuchlar tizimiga kiruvchi vazirlik va idoralar tomonidan viloyat, tuman, shaharlar sektorlari kesimida respublikamizdagi jami 4 million yosh otaliqqa olindi. Ular bilan muntazam uchrashuvlar tashkillashtirilib, murojaatlari bo'yicha to'g'ri yo'lga yo'naltirilmoqda.

"G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasida mudofaa vaziri o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev, Toshkent shahri hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Durdona Rahimova, faxriylar, harbiy xizmatchilar, Olmazor tumani yoshlari hamda aholisi ishtirokida "General va yoshlar uchrashuvi" tadbiri tashkillashtirildi. Tadbir davomida yosh sportchilarimiz, "Vatan tayanchi" otryadi a'zolari erishayotgan yutuqlar e'tirof etildi. Davlatimiz



# YUTUQLAR E'TIROFI

tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyatlardan foydalanib, bu kabi yutuqlardan har bir yosh o'rnak olishi, ular ham bunday e'tirofga loyiq ekani ta'kidlandi.

General va yoshlar uchrashuvi qaysidir ma'noda davra suhbat ruhida o'tib, Olmazor tumani yoshlari hamda aholisi Hamdam Qarshiyev va Durdona Rahimovaga o'zlarini qiziqtirgan savollar hamda takliflari bilan murojaat qildi. Maktab o'quvchisi Asliddin Abdumalikov, o'zini Muhabbat aya deb tanishtirgan onaxon, ikki nafar farzandini sport to'garagiga joylashtirishda amaliy yordam so'ragan Dilbar Xudoyberdiyeva va boshqalarga murojaatlar bo'yicha amaliy ko'mak beriladigan bo'ldi. Bu murojaatlar Mudofaa vazirligi va Toshkent shahri hokimligi hamkorligida ijobiy hal etilishi ta'kidlandi.

Olmazor tumani 15-umumta'lim maktabining 10-sinfida o'qib kelayotgan Asliddin Abdumalikov

qo'ljangi bo'yicha 3 marta O'zbekiston chempioni, 12 marta Toshkent shahri birinchiligi sovrindori bo'lgan. U o'z yutuqlari haqida ma'lumot berar ekan, kelgusida Vatan himoyachisi bo'lish istagini bildirdi. Asliddinning qarori zalda yig'ilganlar tomonidan olqishlar bilan kutib olindi. Asliddinga bundan keyingi mashg'ulotlarni imtiyozli tarzda Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi sport zalida davom ettirish imkoniyati berildi.

Olmazor tumanida istiqomat qilib kelayotgan Muhabbat aya yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo'lida taniqli davlat arbobi Sharof Rashidov nomidagi kutubxona tashkillashtirish taklifi bilan chiqdi. Toshkent shahri hokimi o'rinbosari Durdona Rahimova poytaxtimizda bunyod etilayotgan yuzta kutubxonadan biri albatta Sharof Rashidov nomi va uning ijodi bilan bevosita



bog'liq bo'lishini ta'kidladi. Shuningdek, kelgusida harbiy xizmatchi bo'lish istagini bildirgan yoshlar "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati safiga taklif etilib, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha tegishli shaxslarga ko'rsatmalar berildi.

"General va yoshlar uchrashuvi" dasturi "Vatan tayanchi" otryadining yutuqlarini ifodalovchi videorolik, harbiy xizmatchilar tomonidan namoyish etilgan jadidlar haqidagi sahna chiqishi, Isabay Turemuradov tomonidan Vatan himoyachilariga bag'ishlab ijro etilgan qo'shiq, "Shon-sharaf" davlat muzeyi bo'ylab uyushtirilgan ekskursiya bilan yanada esda qolarli bo'ldi.

**Asror RO'ZIBOYEV,**  
"Vatanparvar"



# Harbiy sudda yangi farmon mazmuni



Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari zamirida, avvalo, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlashdek ustuvor vazifalar mujassam. Yurtimizda inson huquqlarini himoya qilish tizimini "Inson qadri uchun" tamoyili asosida yangi bosqichga ko'tarish, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklari himoyasining kafolatlarini kuchaytirish, shuningdek aholining huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlar jadallik bilan olib borilmoqda.

Prezidentimizning 2024-yil 10-iyundagi "Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni sudlar faoliyatida ochiqlik, shaffoflikni ta'minlash bilan bir qatorda, fuqaro hamda tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatini yanada kuchaytirishda muhim qadam bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudida tashkil etilgan seminar mazkur hujjatning mazmun-mohiyatiga bag'ishlandi. Unda harbiy sud va hududiy harbiy sudlarning sudyalari va xodimlari ishtirok etdi.

Qayd etilganidek, mazkur farmon bilan 2025-yil 1-yanvardan jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yurituv davrida protsessual qarorlarga sanksiya berish masalasi jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarida alohida sudyalari – tergov sudyalari tomonidan ko'rib chiqilishi tartibi joriy etiladi, jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yurituv davrida tergov sudyasi tomonidan protsessual qarorlarga berilgan sanksiyalar faqatgina apellyatsiya instansiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahri sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan yakka tartibda qayta ko'rib chiqish tartibi belgilanadi.

Bugungi kunda jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlar, jinoyat ishlari, mansabdor shaxslarning chiqarilgan qarorlari ustidan berilgan shikoyatlar hamda sudga qadar ish yurituv davrida protsessual qarorlarga sanksiya berish bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqish vakolati berilgan. Bu o'z o'rnida jinoyat ishlari bo'yicha tuman (*shahar*) sudlarida yakka tartibda faoliyat yuritayotgan bir nafar sudyaning o'ziga juda ko'p

ishlarni ko'rib chiqish vazifasini yuklamoqda. Bu fuqarolar tomonidan o'rinli e'tirozlarga sabab bo'layotgan edi.

Shuningdek, jinoyat ishlari bo'yicha hududiy sudlarda ish boshlaydigan tergov sudyalari jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yurituv davrida protsessual qarorlarga sanksiya berish masalalari, ya'ni qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash, qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish, pasportning (*harakatlanish hujjatining*) amal qilishini to'xtatib turish, murdani ekskumatsiya qilish, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash, ushlab turish muddatini 48 soatga qadar uzaytirish hamda prokurorning guvoh va jabrlanuvchining (*fuqaroviy da'vogarning*) ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlash to'g'risidagi va boshqa iltimosnomalarni ko'rib chiqishi belgilanmoqda.

– Mazkur farmon bilan qonunchilikda belgilangan tartibda tergov sudyasiga yuklatilgan vazifalarni adolatli va xolisona bajarish, qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlash, fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini sud yo'li bilan samarali himoya qilish tergov sudyasi faoliyatining asosiy yo'nalishi etib belgilanmoqda, – deydi O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining raisi Sadridin Eshankulov.

Seminarda sudyalari farmon yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirdi. Yangi kiritilayotgan o'zgartirishlar fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini to'liq ta'minlagan holda sudyalarning jinoyat ishlarni ko'rib chiqish jarayonlarida qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilishida keng imkoniyatlar yaratishi ta'kidlandi.

**A. BOBONAZAROV,**  
O'zbekiston Respublikasi  
Harbiy sudining sudyasi

## Qaror va ijro



Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar va ular oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini amalga oshirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlar va bu borada hamkorlikdagi tadbirlar bo'yicha aniq tavsiyalar berildi.

Hamkorlikdagi chora-tadbirlarni davom ettirish, ularni amalga oshirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ommaviy axborot vositalari

# Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishi

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar tizimidagi vazirlik va idoralarning 2024-yilning 6 oyida qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, huquq-tartibot ahvoli, huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyati yuzasidan muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishi o'tkazildi.

Videokonferens-aloqa tarzida o'tgan muloqotda harbiy prokuratura organlari xodimlari, Qurolli Kuchlar tizimidagi vazirlik va idoralarning vakillari hamda mas'ul ofitserlari ishtirok etdi.

Tadbir davomida Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan Xavfsizlik kengashining joriy yil 12-yanvardagi kengaytirilgan

yig'ilishida belgilan berilgan topshiriqlar va vazifalar ijrosi doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijalariga alohida e'tibor qaratildi.

Muhokamalarda, shuningdek harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish, huquq va qonuniy manfaatlarini to'laqonli ro'yogga chiqarish yo'nalishlaridagi ishlar natijalari sarhisob qilindi.

imkoniyatlaridan keng foydalanish hamda faoliyatga doir qator masalalar yuzasidan kelgusi vazifalar belgilab olindi.

Yakunda ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

**Adliya podpolkovnigi**  
**Botir SOBIROV,**  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy  
prokurorining katta yordamchisi





## HARBIY QISMDA QUTLUG' SANA



Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugga qarashli Termiz garnizoni Kakaydi qo'rg'onidagi harbiy qism tashkil etilganiga 85 yil to'lgani munosabati bilan tantanali tadbir bo'lib o'tdi.

Unda harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonining o'rinbosari polkovnik Shokir Xairov, Jarqo'rg'on tumani hokimi Elmurod Avazov barchani tabriklab, harbiy qism tomonidan erishilgan muvaffaqiyatlarni e'tirof etdi. Shuningdek, Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati hamda harbiy xizmatchilarning yurt tinchligi va xalqimizning osoyishta hayotini himoya qilishdagi faoliyati ta'kidlanib, sharafli burchini o'tayotgan harbiy xizmatchilarga iliqliklar bildirildi.

Shaxsiy tarkib o'tgan davrda ko'plab jangovar harakatlarda jasorat, mardlik va matonat ko'rsatgan. Shonli tarixga ega ushbu harbiy qism 1939-yil 11-iyulda tashkil etilgan bo'lib, o'zining qahramonona yo'lini Ikkinchi jahon urushi yillarida boshlagan. Fashizmga qarshi olib borilgan urush yillarida harbiy qismga uch marotaba minnatdorlik bildirilib, 1949-yilda "Qizil yulduzli

bayroq" ordeni bilan taqdirlangan. Shuningdek, harbiy qism Afg'onistonda o'z jangovar vazifasini bajarib, ko'rsatgan qahramonliklari uchun "Qizil bayroq" ordeni bilan mukofotlangan.

Keyingi yillarda harbiy qism joylashgan hudud qiyofasi tubdan o'zgardi. Yotoqxona, oshxona va boshqa binolar rekonstruksiya qilinib, harbiy xizmatchilar uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi.

– Mahorat mashqlarda sayqallanadi, – deydi harbiy qism bosh serjanti Doniyor Madaliyev. – Yangi lavozimimda serjantlar tarkibidagi harbiy xizmatchilarda yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, faol hayotiy pozitsiya hamda vatanparvarlik, mamlakat

taqdiri uchun daxldorlik hissi bilan yashash tuyg'usi zimmamdagi mas'uliyat zalvarini yanada oshiradi. Bu esa jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlikni yanada izchil oshirib borishga xizmat qiladi.

Tadbirda mazkur harbiy qismda namunali xizmati bilan safdoshlariga o'rnak bo'lib kelayotgan bir guruh ilg'or harbiy xizmatchilarga harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonining faxriy yorliq va esdalik sovg'alari topshirildi. Qo'ljangi chiqishlari esa harbiy xizmatchilar hamda askarlarga bayramona kayfiyat bag'ishladi.

**III darajali serjant  
Akbar AHMEDOV**  
Termiz garnizoni







Yoshlar kuni munosabati bilan Prezidentimizning qaroriga ko'ra, bir guruh fidoyi, shijoatli yigitlar "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Ular qatorida Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchisi, oddiy askar Sodirjon Mahmudov ham bor.

Sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash yo'lida o'z burchini sadoqat bilan ado etayotgan irodali, baquvvat o'g'lonlarimiz harbiy xizmat bilan jismoniy tayyorgarlik va sportni chambarchas, uyg'un holda olib borayotgani sababli bugun ular har ikki sohada ham yuqori natijalarga erishib kelmoqda. Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi, oddiy askar Sodirjon Mahmudov ham o'zining bilim va iqtidori, intiluvchanligi bilan safdoshlari orasida katta hurmat-e'tibor qozonib, sportda erishayotgan yuqori natijalari orqali mamlakatimiz sha'nini jahon arenalarida munosib himoya qilayotgan yoshlardan biri.

### OILAVIY QADRIYAT

1996-yil 5-yanvarda Farg'ona viloyatining Rishton tumani Beshkapa mahallasida istiqomat qilayotgan Abdullajon aka va Ozodaxon opa xonadonida ikkinchi o'g'il farzand dunyoga keldi. Bolaligidan qat'iyatli va jasur bo'lgan qahramonimiz doimo kichiklarni himoya qilar, tengdoshlarini esa o'zidek qo'rqmas va botir bo'lishga undardi. Belbog'li kurash bo'yicha ko'plab chempionlar yetishib chiqqan Rishtonda katta bo'lgan Sodirjon 5-umumta'lim maktabida o'qib yurgan kezaridayoq jismoniy tarbiya faniga o'zgacha qiziqish bilan qatnashadi.

Aslida, bu ishtiyoq oilaviy qadriyat bo'lib, otasi Abdullajon aka va akasi Siddiqjonning futbol, boks, qo'ljangi va dzyudo kabi sport

turlariga qiziqishlari katta edi. Shu bois maktabni tugatgach, Toshkent shahridagi Olimpiya zaxiralari kollejiga o'qishga kirgan Sodirjon murabbiylarining ko'magi va oila a'zolarining rag'bati bilan qo'ljangi bo'yicha respublika miqyosida o'tkazilgan ko'plab musobaqalarda ishtirok etib, yuqori natijalarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ladi.

### HAM XIZMATDA, HAM SPORTDA ILG'OR

Sport – jamiyatda sog'lom muhitni targ'ib etuvchi, insonni tobllovchi, unga sabr-bardosh hamda chidamlilikni o'rgatuvchi, orzu-maqсадlari sari yetaklovchi muhim vositalardan biri. Ana shunday xususiyatlar sohibi bo'lgan Sodirjon Mahmudov o'z yigitlik burchini Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari safida o'tadi.

– Askarlik davrim hayot yo'lim va kasb tanlash borasidagi qarashlarimni butkul o'zgartirib yubordi. Vatan himoyasiga bel bog'lab, harbiy xizmatda qolishga, chegarachi bo'lib sarhadlarimiz daxlsizligini munosib himoya qilishga qaror qildim. Sport esa mening doimiy hamrohim. U xizmatimni yanada yaxshiroq olib borishimda menga yordam berib, kuch-quvvat va madad bag'ishlaydi, – deydi qahramonimizning o'zi.

Darhaqiqat, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Sodirjon Mahmudov, mana, bir necha yildan buyon o'z safdoshlari bilan birgalikda sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash borasida olib borayotgan jangovar-xizmat faoliyati davomida yuqori natijalarni qo'lga kiritib kelmoqda.

### MUVAFFAQIYAT OMILI

Intiluvchan qahramonimiz yurt tinchligini ta'minlash bilan birga qo'ljangi bo'yicha o'tkazilayotgan

tuman, shahar, viloyat va respublika bosqichidagi musobaqalarda, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida tashkil etiladigan bahslarda muvaffaqiyatli qatnashib kelmoqda.

E'tiborlisi, Sodirjon xalqaro miqyosdagi musobaqalarda bir necha bor Vatanimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarish baxtiga muvassar bo'lgan. Xususan, qo'ljangi bo'yicha Qozog'iston Respublikasida katta yoshdagi o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida oltin kamar sohibi bo'lishi, shu sport turi bo'yicha Italiyada o'tkazilgan xalqaro o'yinlarda I o'rinni egallashi, Turkiyada universal jang bo'yicha jahon kubogi bahslarida III o'rinni qo'lga kiritishi uning tinimsiz mehnatlari va jonkuyar ustozlarining ko'magi mahsulidir.

Sodirjon Mahmudovning sportda erishayotgan natijalari yuqori baholanib, u O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vaziri tomonidan "O'zbekiston sport ustasi" guvohnomasi bilan taqdirlangan.

Joriy yilda Yoshlar kuni munosabati bilan "Mard o'g'lon" davlat mukofotiga sazovor bo'lishi va mukofotni aynan davlatimiz rahbarining qo'lidan qabul qilib olishi esa uning quvonchiga yanada quvonch qo'shdi.

– Bu men uchun juda katta sharaf bo'lish bilan birga mas'uliyat yuklaydi. Aslida, muvaffaqiyatning bosh omili – bu bilim va tafakkur. Shu bois Farg'ona davlat universitetining Jismoniy tarbiya va sport fakultetida tahsil oldim. Endilikda o'z bilim va ko'nikmalarimni safdoshlarim hamda chegaraoldi hududlarida istiqomat qilayotgan yoshlarimizga o'rgatishni yanada jadallashtirishni niyat qilganman, – deydi qahramonimiz.

### BIR MAQSAD YO'LIDA

Sodirjon oilali. Turmush o'rtog'i Dildoraxon oqila uy bekasi bo'lish bilan birga juda ilmga chanqoq va intiluvchan. U ayni damda Qo'qon davlat pedagogika institutida ikkinchi mutaxassislik bo'yicha tahsil oladi. Yosh oila Muhammadjon ismli o'g'ilni birgalikda voyaga yetkazmoqda.

– Turmush o'rtog'im mening yelkadoshim, hammaslagim. Samimiy suhbatlari, sabr-toqati va o'tkir zehni bilan meni juda yaxshi tushuna oladi. Muhimi, ikkimiz ham bir maqsad – baxtli va farovon oilamiz mustahkamligi yo'lida harakat qilyapmiz. Men uchun eng asosiysi shu, – deydi Sodirjon Mahmudov.

Ham xizmatda, ham sportda ilg'or Sodirjonning maqsadlari aniq: bor kuch va mahoratini shu yurt himoyasiga safarbar etish, uning har qarich tuprog'ini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash. Albatta, hayotini yurt tinchligiga bag'ishlagan ana shunday mard, jasur va fidoyi o'g'lonlar bor ekan, ona Vatanimiz hamisha tinch va osuda bo'lib, o'z taraqqiyot yo'lida davom etaveradi.

**Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari



Bundan besh-olti yillar muqaddam Ikkinchi jahon urushida o'zbeklardan birinchi bo'lib Sovet Ittifoqi Qahramoni unvonini olgan jangchi haqida maqola tayyorlashimiz kerak bo'ldi. Shu topshiriqqa qadar bu borada kimning birinchi bo'lganligi bilan qiziqib ko'rmagan ekanman.

# O'ramizdagi odamlar



Sovet davrida Ikkinchi jahon urushi salkam ilohiylashtirilgan edi. Urush qanday maqsad va sabablar bilan boshlanmasin, u insoniyatga nisbatan jinoyat, adolatsizlik va zulmdir! Yurtimizdan juda olislarda kechgan urushga qariyb ikki million kishi jalb qilindi. O'sha paytda mamlakatimiz aholisi olti milliondan sal oshar edi. Front uchun berilgan moddiy yordamning aniq hisob-kitobi ham aqlni shoshirsa kerak.

Aslida bugungi mavzu butunlay boshqa. O'zbek millatining insonparvarligi haqida so'z aytmoqchimiz. Yuqorida aytganimdek, qahramon izlab, oliyanob insonlarni uchratdik. Birinchi o'zbek qahramonini topish unchalik ham oson bo'lmadi. Chunki tug'ilgan joyi Turkmaniston ko'rsatilgan, Farg'onadan 1940-yilda harbiy xizmatga chaqirilgan, ism-familiyasi ham sho'ro davrida keng tarqalgan xato, hatto nopisandlik bilan yozilgan: Durdiyev Kachkar?!

Farg'ona viloyatida bunday ism-familiyali inson yo'q edi. Nihoyat jasur jangchining daragini topdilar. U Andijonning Oyim qishlog'idan, 1940-yili emas, 1939-yili harbiy xizmatga chaqirilgan, fin urushida ham qatnashgan Qo'chqor Turdiyev ekan! Ikkinchi jahon urushining qahramonlaridan mashhur uchuvchi Aleksey Meresyev (*u haqda yozuvchi Boris Polevoy "Chin inson haqida qissa" kitobini yozgan*) uni juda hurmat qilgan, aziz mehmoni sifatida qabul qilgan. Taniqli fotograf, rasmlari bilan Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston solnomasini yaratgan Georgiy Zelma qahramonimizning to'yida (*bu to'y qozon to'la palov bilan emas, qovoq somsa bilan o'tgan edi*) ishtirok etgan, hayotining yorqin lahzalarini "Izvestiya", "Ogonyok", "Krasnaya zvezda" sahifalariga muhrlagan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek gap bu haqda emas. Gap qahramon jangchining dilbandi, qizi Mamlakat opa haqida. Opa ellik yildan ortiq Oyimdagi umumta'lim maktabida ishlagan. Rus tilini mukammal bilgani uchun otasi Qo'chqor Turdiyevning sobiq Ittifoq bo'ylab safarlarida hamrohlik qilgan.

Opa bilan bir necha bor suhbatlashganmiz. Bir gal shunday voqeani aytib berganlar:

- Maktabimizda rus tili va adabiyoti muallimasi bo'lar edi. Millati rus. U bilan bir necha yillar birga ishladik. Yaxshi inson edi. Bitta-yu bitta qizi bor edi. U bilan juda faxrlanardi. Og'zidan bol tomib maqtardi. Qizi voyaga yetgan kuni ota-onasining uyini tark etib ketdi. Shundan so'ng uning Oyimga qaytganini birov ko'rmadi. Qiz haqida yangiliklarni onasidan eshitib turar edik. Orada uning harbiy uchuvchiga turmushga chiqqanini, eri bilan Qirg'izistonda yashashini bildik.

- Kuyovim polkovnik, qiruvchi samolyotni boshqaradi, - deb

maqtanib qoldi bir kuni. - Har yili ta'tilda Toshkentda dam olishadi. Bolalariga ham, qizim ikkoviga ham Toshkent va uning tog'li joylarida dam olish juda yoqadi. Qizim aytib berdi, rasmlar yuborgan...

Hammamiz jim bo'lib qoldik. Hamkasbimiz Oyimdan tashqariga chiqmagan, chiqqanida eshitar edik. Qizi turmushga chiqibdi, bolalari bor ekan... Toshkentga yetgan oyog'i Andijonga yetmabdimi?! Onasini ko'rgisi kelmas ekanmi? Nahotki sog'inmasa? Shu qiz uchun jonini fido qilardi-ya?! Savol berishga andishalandik. Savollarimiz uning ko'nglini vayron qilishi aniq edi.

Yillar o'taverdi. Muallima opa ham pensiyaga chiqdi. Yo'qlab turardik. Bir kuni choy ichib o'tirsak, uy eshigiga ishora qilib dedi:

- O'lsam, tobutimni shu eshikdan yasattirasiz!

- O'lim haqida gapirmang, uncha-muncha yoshlardan baquvvatsiz, - dedim-u, o'ylanib qoldim. Yaqin o'rtada ruslar ham yo'q. Jomadoni yonida millat ekanmi, hammasi har tomonga ketib bo'ldi. Birgina shu hamkasbimiz qoldi. O'lim ham haq bo'lsa...

Hech xayolimdan ketmay qoldi. Qizidan umidini uzib bo'lgan shekilli, oxirgi paytlar umuman nomini tilga olmay qo'ydi. Qandaydir cho'kib qolgan. O'yab-o'yab bir qarorga keldim. Ko'p o'tmay yeguliklar olib, yana yo'qlagani bordim. Gapning po'skallasini aytib qo'yaqoldim:

- O'limdan gapirmang, desam, o'zingiz boshlayapsiz. Unda eshiting: bu o'rtada tobut yasaydigan odamning o'zi yo'q. Xo'p, bir amallab yasattirdik ham deylik. Qolgan ishlar nima bo'ladi? Bitta bo'lsa-da, nasroniy yo'q-ku, yaqin-o'rtada. Siz bilan ancha yillar birga ishladik, el sizni hurmat qiladi. O'lganingizda izzat-hurmat bilan kuzatishni xohlaymiz.

- Nima qil, deysiz?

- Islomni qabul qiling! - dedim ko'zlariga qarab. - Keyin yoningizga uy-joyga muhtoj bironta yosh oilani olasiz. Keksalikda yolg'iz qolmaydiz. Issiq-sovug'ingizdan xabar olib turishadi. O'z onalariga qanday qarashsa, sizga ham shunday g'amxo'rlik qilishadi. Qizingiz endi bu yerlarga qaytmaydi. Unga bu uyning keragi ham yo'q. Tag'in o'yab ko'ring, sizni majbur qilayotganim yo'q.

Ayol yig'ladi. Taklifimdan emas, qizi haqidagi gapim uning qalbini o'rtab yubordi.

Opa islomni qabul qildi. Yosh oila uning hayotiga rang olib kirdi. Bolalari bilan ovundi. Tetiklashib, elga aralashib yurdi. So'nggi yo'lga ham elimiz ehtirom bilan kuzatdi.

Qizi esa... baribir kelmadi.

**Inobat IBROHIMOVA,**  
"Vatanparvar"





Chingizxon askarlari Urganch qamalida samarqandlik asirlardan jonli qalqon sifatida foydalanadi. Urganchni himoya qilayotgan askarlar birinchi qatorda qo'l-oyoqlari bog'langan holda o'z birodarlari turganligini ko'radi va kamondan o'q uzishlarini ham, uzmasliklarini ham bilmay qolishadi. Shunda samarqandlik asirlar xivaliklardan o'q uzishlarini, ikkilanmasliklarini iltimos qilib so'raydi.

Oqshom hali yoymagan parda,  
Ko'kka zulmat inmagan hali.  
Nur sirg'alar hali tog'lardan,  
Quyosh butkul so'nmagan hali.  
Kapalaklar qobig'in yorib,  
Raqs tushmoqda bog'larda ozod.  
Ular bilan o'ynayin borib,  
Ot, Murodjon, Musulmonqul, ot!

Yodingdami, ovga chiqqan dam  
O'lja poylab turardik qoyim.  
Ne chiqsa ham ataylab sendan  
Bir dona ko'p otardim doim.  
Ol ko'ksimdan ushbu azobni,  
Tushun, axir, ey odamzod,  
Tenglashtirish kerak hisobni —  
Ot, Samandar, Sultonmurod, ot!

Shudir urush bitgan qoida,  
Yo o'ldirmoq va yo o'lmoqdir.  
Eng yomoni dushman poyida  
Yurtga eltar narvon bo'lmoqdir.  
Qachonlardir bu kunni Vatan  
G'urur bilan etsin desang yod,  
Qutqargin bu yuzqarolikdan,  
Ot, Shamsiddin, o'tinaman, ot!

Hifzga muhtoj lolalar haqqi,  
Munchoq ko'zli bolalar haqqi.  
Ko'ksi kuyib ado bo'lgan-u,  
Lek qaddi tik onalar haqqi.  
Singillarning ko'zidan tomgan  
Marjon-marjon donalar haqqi,  
Yonsa faqat visoldan yongan,  
O't ko'rmagan xonalar haqqi.


Jonim bilan berayin jon, ot,  
Tilanmoqda ruh-u zabon, ot.  
Titramasin qo'llaring, Elbek,  
Ot, Jo'raqul, Jo'rasulton, ot!  
El yovga qul bo'lmasin deb ot,  
Zamin qonga to'lmasin deb ot.  
Ot, Ko'kaldosh, shu emikdoshim  
Tiriklayin o'lmasin deb ot!

Urganch askarlari teskari  
qaragan holda ko'zlarida yosh  
bilan o'q uzadilar...

**Iftixor XONXO'JAYEV**







## TO'YLAR SOLGAN KO'YLAR

Yaqin bir tanishimiz qiz uzatdi. To'rt farzandning to'ng'ichi bo'lgani uchunmi, qizi oilaga qayishgan, ota-onasiga mehribon edi. Yuzidan ibo-hayosi balqib turadigan latofatli qizni suyib, yurak ocholmagan, uning uyi yaqinida kun bo'yi bir ko'rishga zor o'tirgan yigitlarni dog'da qoldirib kelgan sovchilarga rozilik bildirdi. Qizini kelinlikka so'rab kelganlarning og'ir-vazminlik bilan fikr yuritishi, nurli chehrasini ko'rib, ota-ona: "mayli", deb yuborganini o'zlari bilmay qoldi.

Hamma tashvish to'y arafasida boshlandi. Er-xotin ahillik bilan yig'ib-terib, qizining kamini ancha to'ldirib qo'ygani edi. To'y maslahatiga kelgan qarindoshlarning ataganini berib ketgani ularning bozorini qizdirdi. O'zi aytgan vaqtga to'y kunini belgilagan yigitning onasi bo'lajak qudalaridan hol so'rganan bo'lib sim qoqadi: "Qizingiz endi mening bolam, bolalarim baxtli bo'lsa bas! Taxtni-ku, topsa bo'ladi. Yaratgan ularning baxtini beka-u ko'st qilsin! Ammo uy jihozlarini baribir olasizlar. Yaxshirog'i olinsa, pulingiz yoningizda qoladi-da, quda. Men uyimning o'lchamini oldim, ertaga birgalashib mebel tanlasak bo'lardi".

Do'konga birga tushgan qudasi ming tavallo bilan tanlangan mebellarning bahosini ko'rib, ona sho'rlikning yuragiga g'ashlik tushdi. To'yona-yu, barcha yig'ib-terganini jamlaganda ham mebel bahosining yarmiga yetmasdi. Uyiga qaytib, eriga yurak yozdi. Olovlangan er: "Hech qanaqa to'y bo'lmaydi, fotihani buzamiz, unga kelin emas, jihoz kerak ekan. Biror boyning qizini kelin qila qolsin. Qiz boqib, balog'atga yetkazib, ilm-u hunar o'rgatib, hayotga tayyorlab: "Olib ketavering, bolam endi sizniki", deb qo'lga tutqazar ekanmiz-u, yana bizga sharti bor ekanmi? Ertagayoq lash-lushlarini qaytarib yubor, oramizda hech narsa qolmasligi kerak. O'zimizga o'xshagan odamlar topilib qolar", dedi. Ayol unga yolvora boshladi: "Fotihasi qaytgan qiz nomini oladimi, dadasi, keyin eshikdan biron so'rab kelmaydi-ku!

Bo'yi yetib turgan bir emas, ikki singlisining taqdiri nima bo'ladi?!"

Er-xotin yuz o'y, ming andisha bilan yashab turgan uylarini sotuvga qo'ydi. Qo'shnisi xaridor bo'lib kirganida boshlari ko'kka yetdi. Uch xona uyda yashadik nima-yu, ikki xonali uyda yashadik nima, deya bir-birini ovutdi. Farzandlarining baxtini o'ylab shu yo'lni tutdi go'yo. Qaynonasining ko'nglidagidek sarpolar bilan kirib borgan kelinchak o'z baxtidan masrur edi. Ammo...

Kelin tushirgan qo'shnisining uyidan mehmon bo'lib qaytgan qaynonaning avzoyini ko'rib, kelinchak hayron bo'ldi. Jahli chiqsa, gapini maqol tarzida aytib, tartibga chaqiradigan oyijonisi bugun boshqacharoq edi. "Boyg'a boy boqadi, kambag'alning ko'zidan yosh oqadi", deb bejiz aytmagan ekan onam rahmatli. Kelinning uyidan kelgan qovurdoqni ko'rib, og'zimiz lang ochildi: tog'oraga tirik oqqushni o'rnatib qo'ygandek. Atrofidagi bezaklarini ko'rsangiz naq san'at asari deysiz. Pishiriqlarining shirasi tilni yoray deydi. Kelin salom berayotganda nazar soldim, egnidagi ko'ylagi bu yerniki, bu olamniki emas. Ko'kdan tushgan farishtaga o'xshaydi. Odamda orzu-havas bo'lsa, hamma narsaga imkon topadi. Qovurdoqni atay yonimizga olib kelib ochdi anavi pismiq qo'shnim, siznikidan kelgani esimga tushib, uyatdan yerga kirib ketay dedim. Falon pulga "zakaz" qilib pishirtirgan shundoq bo'ladi-da. Onangiz meni qo'ni-qo'shnilar oldida sharmanda qilib, filning

qulog'icha tog'orada yuborgan qovurdog'ining yarmi xamir qo'shilgan do'lma, yarmisi tuxum bilan to'latilgan edi..."

Qiz biror gap aytib, yurak hovurini bosolmadi, uyiga kirib, unsiz yig'ladi. Har kuni, har soniyada bunday ta'nadomatlar bo'lib turganidan yuragi uvshadigan bo'lib qoldi. "Charlarida onangiz tuzukroq sarpo qo'ymadi, dasturxonida yeydigan hech vaqo yo'q, falonchining qudasi kuyoviga "Spark" mindiribdi, ziqna onangiz kuyoviga bitta shim, oddiy ko'ylak qo'ygandan uyaldim, peshonamga bitmagan ekan..." degan malomatlardan to'yib, ota uyiga ketdi. Homilador ekani aniq bo'lgach, onaizor qizini yetaklab uyiga olib bordi. Qizi: "Kuyovingiz bilan tortishib qoldik", deyishdan nariga o'tmagan edi. "Rang ko'r, hol so'r", degan gap bor. Ota-onasining ahvolini ko'rib-bilib turib, qaynonasi aytgan achchiq gaplarni qanday qilib onasiga aytadi?! "Qizim yoshlik qilibdi, opajon, hargiz uyimga arazlab borsa, ostonadan kiritmayman", deb bosh urib, kechirim so'radi...

Kunlar ketidan kunlar o'tib, qizining oy kuni yaqinlashib borayotgani sari onaning ko'nglidagi g'ashlik ortib borardi. Bir tomoni ranglari sarg'ayib, holsizlanib, ozib-to'zib ketgan qizining sog'lig'idan xavotir olsa, bir tomoni...

Yomon tush ko'rib, cho'chib uyg'ongan ayol ming andisha bilan sim qoqib, qizidan hol-ahvol so'radi. "Oyi, ahvolim yaxshi emas. Qonim kam, qon bosimim ko'tarilib, yuragim tinmay o'ynaydi. Kecha tekshiruvdan o'tdim,

tayyorlov bo'limiga yoting, deyishdi. Ammo oyijon ruxsat bermayaptilar", dedi. O'zim borib, uyingdagilardan ruxsat olib, tug'uruqxonaga olib boraman, xarajatlarini o'zimiz to'laymiz, deganiga qizgina ko'nmadim.

Ultratovush tekshiruvdan so'ng homila o'g'il ekanini eshitgan qaynona kelinchakka: "Kelinposhsha, uyingizdagilarga ayting, ovora bo'lmay, bir yo'la o'g'il to'yini ham o'tkazib yuboramiz. Qo'ni-qo'shnilarining ko'zicha urf-odatimizni yerga urmay, ijaraga bo'lsayam, toy yasatib kelishsin. Muzlatkichmi, kattaroq televizormi sovg'a qilish niyatlari bordir, hamma shunaqa qilyapti hozir, ertaroq aysangiz, harakatini qiladi", dedi.

Kelinchak uyidagilarga aytishga botinmadi. "Turmush degani yoshgina jonga jazo degani ekan, o'sha paytda ajrashib ketsam bo'larkan. Oilam yaxshi bo'lishi uchun, shuncha sarf-xarajat qilib o'tirgan ota-onam uchun singillarim, ukamni o'qitish, uyli-joyli qilish ham katta muammo. Endi nima bo'ladi?!" xayolida faqat shu so'zlar aylanardi.

Ota-ona endi ikki xonali uylarini sotib, bir xonali ta'mirlab uyga ko'chib o'tishdi. Bo'yi yetib qolgan ikki qiz, o'smir o'g'il, er-xotin barchasining kuni shu tor uyga qoldi.

Hamma narsa taxt. Hali tug'ilimgan chaqaloqqa olingan kiyimlarning orasida maktab yoshiga yetganida kiysa ko'ladiganiyam bor. Kuyov, quda-anda degandek, hammasiga atalgan sarpolar tugunlarga joylangan, faqat tun-u kun yaxshi xabar kutishadi. Homilador kelinchakning esa kundan kun rangi za'faron tus olib, holi abgor bo'lib borardi... O'zi sabab ota-onasining boshiga tushgan tashvishlar, to'ydan keyingi yugur-yugurdan ko'zlari kirtayib, sochlari oqarib ketgan otasi, gapirsa mijjalari namlanib turadigan onasi ko'z oldidan o'tadi. Dili og'riydi, yuragi notinch uradi. Darmonsizlikdan sillasi qurib qolsa-da, uyidagilarga lom-lim demaydi. U ota-onasining hurmati, chekkan zahmati uchun ham shu oilada yashashi, barchasiga ko'nishi, chidashi kerak edi...

Yarim tunda eshik qo'ng'irog'idan cho'chib uyg'ongan onaning yuragi hapriqdi. Eshik yonida ko'zlari yig'idan qizargan kuyovi titrab turardi. "Voy, keling, bolam, nima gap? Nega xafasiz? Chaqaloqqa biror gap bo'ldimi-a? Hozir yuragim yorilib ketadi, gapiring!"

Kuyovning:  
- Qizingiz jonlantirish bo'limida... - degan xabari onani hushidan ayirayozdi...  
To'y qilib, qiz uzatish yoki o'g'il uylash barcha ota-onaning zimmasidagi burch. Ammo to'ydan keyingi "to'y"larni kim o'ylab topgan? Kelin-kuyov ko'rish baxtiga yetkazgani uchun Yaratganga shukronalar aytib, duo qilib o'tirish o'rniga kiyim-uy buyum tashvishida bozorma-bozor yugursak?

Bugun to'y bo'lsa, ikki kundan keyin "charlar" qilib, yana to'y qilgan xonadon egalarning "chop-chop" davom etadi. Yangi qudaga mulozamat, yana sarpo-suruq, patnis to'la shirinliklar bilan siylab, karnay-surnay bilan uyiga kuzatib qo'yishi kerak. O'g'il o'stirganning uyida ham besh-olti tog'ora tashvishi aylanganidan, jilmayib salom bilan choy uzatayotgan kelinchakning chiroyi ham uy egalarning ko'ngliga sig'avermaydi. Bir xil rangdagi "Jip" yoki "Captiva"lar bilan ko'cha to'ldirib, kelinchak huzuriga kirib borgan sho'rlik kuyovning gardanida ancha qarz.

Buvim rahmatlining bir gapi bor edi: "Chillali odamning yaqiniga borma, chil odim berida tur. Yangi tug'gan ayol ham, kelin-kuyovlar ham qirq kungacha chillali sanaladi. Yaxshi yeb, yaxshi ichishi, shomdan keyin uxlab dam olishi, ko'ringan odam bilan quchoq ochib ko'rishmasligi kerak. Balodan hazar-da, bolam", derdi. Hozir esa to'yning ertasigayoq kelinchak tongda qo'lga supurgi, chelak ko'tarib, xizmatga tushib ketadi. Bir kun o'tib, ota uyiga mehmonlar qurshovida borishi, barcha yaqinlari, qo'ni-qo'shnilar bilan bag'rini ochib ko'rishishi, gohida yuz martalab egilib, salom berishi kerak.

Bularning hammasi el ko'ziga qilinayotgani ayon-ku! Yoshlarning yuzida baxt nashidasi balqishi uchun, yangi hayotga o'rganib, tup qo'yib, palak yozishi uchun ularga shart-sharoit yaratish kerak emasmi? Hech bo'lmaganda, o'n kun bordi-keldi, supur-sidirdan nari bo'lsa, kuchga to'lardi, bir-biriga o'rganib, ko'z qarashidan tushunib oladigan bo'larmidi?! Farzand dunyoga keltirib, vujudini to'lg'oq azobi tark etmay turib, kelinchakka - onaga tug'uruqxonadan uch kunda uyiga ruxsat berilyapti. Qovurdoq, beshik tashvishiga tushgan onalar tug'gan boyaqishga tuzukroq e'tibor ham bera olmaydi. Chaqaloq sarposini quchoqlab, xotin-xalajni yetaklab, tog'ora ko'tarib, qizning onasi ovora, yangi tug'gan juvonga bir qoshiq yovg'onini ichkizib, nabirasini erkalab o'tirish o'rniga dasturxon yozib, quyuq-suyug'iga kosa tayyorlab, buyuqdagilar ovora...

Shukrona dasturxonini yozish niyati bor odam chillasi chiqib, suyagi qotgan go'dagini ko'tarib, kelinchakning qizlik uyiga olib borsa, oilaviy gurunglashib o'tirsa ham bo'ladi-ku!

Eng yomoni, ana shu o'zimizcha "orzu-havas", "quda-andachilik", "bordi-keldining ziynati" deb nom qo'yib olgan ovoragarchiliklarga bog'lanib vaqt, umr o'tyapti. Sochlari oqaryapti, tishlar tushyapti. Holbuki, insonga umr o'lchab berilgan.

Shunday ekan, yashash uchun berilgan umrga xiyonat qilmaylik. Uni baxtli, salomat va osuda o'tkazaylik.

**Munavvara USMONOVA,  
O'zbekistonda xizmat  
ko'rsatgan madaniyat xodimi**



Ona yurt himoyasiga er yigitlar munosib. Bilimdon, sog'lom, shaxdam, oriyatli, tadbirkor... Shu sabab harbiy sohada qad rostlash oson emas. Sharafli kasbga erishguningga qadar bir-biridan zalvarli sinovlarni yengib o'tishga to'g'ri keladi. Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar maqomiga erishish uchun belgilangan talablar borki, yigitlarimiz o'smir chog'idan boshlab salomatligi, jismonan chiniqqanligi, intellektual salohiyatiga e'tiborli bo'lishi shart. Sizga tanishtirmoqchi bo'lgan o'g'lonlarimiz muddatli harbiy xizmatga saralash sinovlaridan muvaffaqiyat bilan o'tib, sharaf bilan askarlik libosini kiygan o'tyurak posbonlardir.

# Vatan himoyasi biz uchun sharaf!




**ODDIY ASKAR  
FARIZJON SODIQOV**



**ODDIY ASKAR  
BAHODIR SOLIYEV**



**ODDIY ASKAR  
IASURBEK OXUNOV**



**ODDIY ASKAR  
XURSHID MAMALATIPOV**

## OTA-ONANING FAXRI

2023-yil. Samarqand shahridagi shinamgina hovli.

– Dadasi, suyunchi bering! Hozirgina Farizjonning ustoz qo'ng'iroq qildi, – Dilrabo opa hayajon ila turmush o'rtog'i Nosirjon akaga yuzlandi. – O'g'limiz Buxoroda o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida 3-o'ringa sazovor bo'lib, g'oliblikni qo'lga kiritibdi.

– Yashasin, ota o'g'li! Iшонaman, u keyingi musobaqalarda, albatta, 1-o'rinni egallaydi.

O'quvchilik davridan boshlab sportning kurash va sambo turi bilan shug'ullangan oddiy askar Farizjon Sodiqov respublika chempionatida ishtirokiga qadar shahar va viloyat musobaqalarida ko'p marotaba yuqori o'rinnlarni egallab kelgan. Sportchi yigitimiz bugun Vatan posbonlari safida xizmat o'tamoqda. U kelgusida armiya sport musobaqalarida ishtirok etsa, ajabmas.

– Sportdan tashqari tarixiy asarlarga, ayniqsa Vatanimiz va jahon tarixiga qiziqaman. Kitob mutolaasi sevimli mashg'ulotlarimdan biri, – deydi oddiy askar Farizjon Sodiqov suhbat chog'ida.

– Ayni fursatda esa harbiy xizmat ko'nikmalarini, mas'uliyatli vazifam – yong'in o'chiruvchilikni puxta o'zlashtirishga intilyapman. Buning uchun komandirlarimdan minnatdorman. Hayotimda iz qoldirgan eng mas'uliyatli, hayajonli va unutilmas damlar askarlik davrim bilan bog'liq bo'lishiga ishonaman. Maqsadim – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida tahsil olib, Chegara qo'shinlarida xizmat qilish.

## MOHIR HAYKALTAROSH

Posbonlar bilan suhbatlashganimda har gal bir haqiqatni his qilib turaman. Yigitlarning barchasida o'ziga xos iqtidor mujassam. Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Bahodir Soliyev o'quvchilik chog'laridan haykaltaroshlikka qiziqqan. Haykaltaroshga shogird tushgan yigitcha turli haykallarni maromiga yetkazib yasay boshlagan. Saboqlar, tajribalar davomida iqtidori sayqallangan Bahodirning bu borada o'zi yaratgan asarlari talaygina.

Umumta'lim maktabidan so'ng Ishtixon tumanidagi kasb-hunar kollejni tugatgan Bahodir harbiy xizmatga qadar nafaqat haykaltaroshlik, balki qurilish ishlarida faoliyat yuritganidan voqif bo'ldik. Oddiy askar Soliyevning harbiy xizmatga qiziqishida esa o'ziga xos sabab bor. Bu haqda uning o'zidan eshitamiz:

– Bobom harbiy xizmatchi bo'lgan. Ularning o'zini tutishi, qat'iyatiga hamisha havas qilganman. Shu sabab harbiy xizmat o'tashni orzu qilardim va askarlikka munosib bo'lishga intildim. Bundan bobom juda xursand bo'ldi. Vatanga qasamyod tadbiriga o'tonam qatori bobom va buvim kelishdi. Ularning oldida Vatanga qasamyod ado etganimdan ko'ksim g'ururga to'ldi. O'sha onda yaqinlarim mendan faxrlanishganini his qilib turdim. Xizmatim davomida shuni anglab yetdimki, men yurt osoyishtaligi yo'lida xizmat qilishim shart. Shuning uchun muddatli harbiy xizmatdan so'ng ichki ishlar sohasida faoliyat yuritishni, shu yo'nalishda tahsil olib ofitser bo'lishni maqsad qildim.

Er yigitga qat'iyat yarashadi. Ayni fursatda harbiy avtomobillarni boshqarish sirlarini o'zlashtirib kelayotgan oddiy askar Bahodir Soliyev kelgusida Vatan xizmatiga qad rostlasa, ajabmas.

## SPORT USTASI

Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Jasurbek Oxunovga safdoshlari havas qilsa arziydi. Chunki u muddatli harbiy xizmatga qadar Farg'ona shahridagi 5-umumta'lim maktabida sportning qo'ljangi turi bilan shug'ullanib, zalvarli yutuqlarni qo'lga kiritgan. Uning ta'kidlashicha, 2023-yili o'tkazilgan xalqaro turnirda 1-o'rin g'olibligiga erishgan. 2024-yil fevral oyida bo'lib o'tgan Osiyo chempionatida esa aralash jang yo'nalishida 1-o'rinni egallab, sport ustasi nomiga sazovor bo'lgan. Bu yuksak muvaffaqiyatlar bilan oddiy askar Oxunovni sharaflasak arziydi.

– Mening yana bir omadim Vatan posbonlari safida ekanimdir, – deydi Jasurbek faxr bilan. – Chunki tengqurlarim orasida muddatli harbiy xizmat o'tayotganlar kam. Bunda sport bilan shug'ullanib, jismonan chiniqqanligim o'rin tutdi, deb o'ylayman. Xizmat vazifamni o'zlashtirishda komandirlarimning o'rni katta. Ular saf tayyorgarligida qadam tashlashimizdan boshlab, askarlik burchimizning har bir talabini egallashimizda nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali saboq berib kelishmoqda. Niyatim – harbiy xizmatni a'lo darajada o'tab, yaqinlarim bag'riga yorug' yuz bilan qaytish.

Oilada yolg'iz farzand bo'lgan Jasurbekning orzusi sport yo'nalishidagi faoliyatini davom ettirish hamda tadbirkorlik bilan shug'ullanishdir. Kelgusida o'ta-onasi va el-yurtiga har tomonlama tayanch bo'lishni istagan oddiy askar Oxunov askarlik majburiyatini ado etishda oldingi safda bo'lishiga ishonamiz.

## O'Z ONTIMDA SOBIT TURAMAN

– Meni yigitlik burchimni o'tashga qiziqtirgan birinchi inson akam bo'ladi, – deydi Samarqand viloyatining Paxtachi tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan oddiy askar Xurshid Mamalatipov. – U muddatli harbiy xizmatni Chegara qo'shinlarida o'tagan. Akamning ta'kidlashicha, "Har bir yigit armiyada xizmat qilishi kerak!" Uning fikrini harbiy xizmat davomida chuqur anglab yetyapman. Avvalo, burch mas'uliyatini his qilish, Vatanga sodiqlik, askarlik majburiyatining sirlarini egallab borish kabi o'ziga xos talablar yigit kishidan iroda, bilim va jismonan chiniqqanlikni talab etadi. To'g'ri, xizmatning dastlabki oyi hamma safdoshlarim uchun haqiqiy sinov onlari bo'ldi. Talabchan komandirlarimizdan harbiycha qadam tashlash, harbiy libosni chiroyli qilib kiyishdan boshlab, harbiy qurollarni qo'lida tutish va o'zlashtirishga qadar saboq oldik. Buni armiya ko'rgan yigitgina tushunib yetishi mumkin. Men xizmatning dastlabki kunidan oddiy askar Anvar To'rayev bilan do'stlashdim. U dunyoqarashining kengligi, bilimdonligi bilan menga yoqdi. O'sha kundan e'tiboran xizmat ko'nikmalarini o'zlashtirishda bir-birimizga yaqindan yordam berib kelyapmiz. Askariy birodarlik deb shuni aytishsa kerak. Ayni damda, o'zimga bo'lgan ishonchim mustahkamlandi, deb ayta olaman.

Oddiy askar Xurshid Mamalatipovning fikrlari, orzulari teran va salmoqli. U shaxmat, voleybol hamda kitob mutolaasiga qiziqadi. O'quvchilik davrida viloyat miqyosidagi shaxmat musobaqasida 4-o'rinni qo'lga kiritgani, shaxmat sirlarini yaxshigina o'zlashtirganidan dalolat. Xizmatdan bo'sh paytlarida o'zbek adiblarining asarlarini maroq bilan o'qib chiqqaniga qaraganda, kitobxonlik uning sevimli mashg'uloti. Menga ta'sir qilgan jihati esa uning samimiyligi bilan aytgan ushbu so'zlari bo'ldi:

– Men kelajakda xalqimning tinchligi va osoyishtaligini asrash uchun Milliy gvardiya safida kontrakt bo'yicha xizmat qilmoqchiman. Men, oddiy askar Xurshid Mamalatipov har doim, har qanday vaziyatda o'z o'ntimda sodiq turaman, xalqimga, Prezidentimga sadoqat bilan xizmat qilaman!



# Baxtni saqlab qoling!

Ikki insonning oila qurib, baxtli-saodatli umr kechirishi asli juda murakkab vazifa.

Chunki ayolning ham, erkakning ham o'ziga xos xarakteri mavjudki, bu jihat o'zaro munosabatlarda juda ehtiyotkor bo'lishni talab etadi.



Unutmashimiz kerak, oilaviy hayot o'ziga xos ravishda turli kelishmovchiliklar va nizoli holatlardan iborat bo'lishi tabiiy. Lekin shunday ziddiyatli holatlarning oldini olish va oilaviy baxtni saqlab qolishning ham o'ziga xos qoidalari bor. Bu qoidalarga doim amal qilgan juftliklar oilani haqiqiy baxt qo'rg'oniga aylantira oladi. Quyida baxt sari eltuvchi ana shu qoidalar haqida batafsil ma'lumot beramiz.

**Turmush o'rtog'iga ishonish.** Oilaviy baxtga erishishni istagan er-xotin tirmoq ostidan kir qidirmasliklari, bir-biridan shubha qilmasliklari, o'zaro ishonch asosida o'z faoliyati va qiziqishlari bilan mashg'ul bo'lishsa, ayni muddao bo'ladi. Chunki ishonchsizlik ko'pgina ko'ngilsizliklarga olib keladi. Ko'ngilsizlik esa mehrsizlikka va bora-bora oilaning darz ketishiga sabab bo'ladi.

**Mehr va muhabbatli bo'lish.** Hayotda shunday holatlar bo'ladi, er-xotin munosabatlarida e'tibor, g'amxo'rlik va xushmuomalalik sevgi, muhabbatdan ustun turadi. Masalan, turmush o'rtog'i ishdan kelganida ayol kishi mayin tabassum va xushmuomalalik bilan kutib olsa, erkak ham unga mos ravishda ochiq yuz bo'lsa, yaxshi gaplar bilan oilasidagilarning ko'nglini olishga intilsa, bilingki bu oilada baxt hukm suradi. Yana bir eng muhim jihat, oiladagi shunday samimiy muhit sabab oila boshlig'i doim uyiga talpinadi, kelishga shoshadi, oila bekasi esa

o'zining kimgadir kerakligini his qilib yashaydi. Demak, oilaviy baxtga erishish uchun turmush o'rtog'larning bir-biriga e'tiborli, g'amxo'r bo'lishi borib-borib bu munosabat muhabbat va sevgiga aylanishiga asos bo'lar ekan.

**Bir-birini tanqid qilmaslik.** Insonning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, u maqtoovni suyadi. Tanqid esa uning uchun yoqimsiz holat. Agar u oila a'zolaridan biri tomonidan aytilsa, bu unga xuddi nayzadek jigarbag'rini ezadi, qarabsizki norozilik kayfiyati kelib chiqadi. Bundan xulosa shuki, agar insonda oilaviy baxtni saqlab qolish xohishi bo'lsa, oila a'zolarini tanqid qilmasligi kerak.

**Me'yorida ortgan rashk.** To'g'ri, rashk insonga xos xususiyat. Ayniqsa, er-xotin bir-birini rashk qilishi, qizg'anishi tabiiy holat. Lekin o'ta rashkchi bo'lish ko'p ko'ngilsizliklarga sabab bo'lishini esdan chiqarmang! Chunki rashk ayollarning ham, erkaklarning ham g'ashiga teguvchi holat. Avvaliga rashk yoqimli bo'ladi. Ammo rashk ta'qib vasvasasiga aylangach, er-xotinlik munosabatlariga darz ketadi, ularning bir-biridan ko'ngli qoladi. Unutmang, inson shundayki, stressli vaziyatlarga toqat qilolmaydi. Rashk esa aynan stressli vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

**Zarifa TURDIYEVA,**  
Mudofaa vazirligi  
Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar  
bosh boshqarmasi  
bosh mutaxassisi

## Forum

Milliy gvardiya Toshkent shahri qo'riqlash boshqarmasida "Xavfsizlikni ta'minlashda xotin-qizlarning o'rni" mavzusida ayollar forumi bo'lib o'tdi. Unda uch yuzga yaqin turli soha vakillari bo'lmish xotin-qizlar ishtirok etdi.

# Xavfsizlikni ta'minlashda xotin-qizlarning o'rni



Forumda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Xotin-qizlar va gender tengligi masalalari qo'mitasi raisi M. Qodirxonova, Toshkent shahri hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari D. Rahimova, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisining o'rinbosari M. Nurmatova, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi hamda qator tashkilotlar va huquqni muhofaza

qiluvchi organlarning mas'ul xodimlari o'z ma'ruzalari bilan qatnashdi.

Muloqotlarda ayol harbiy xizmatchilarni, xodimalarni va ularning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, jamiyatda ijtimoiy va siyosiy faolliklarini yanada oshirish, kelajak avlod va farzand tarbiyasida, oilada sog'lom muhitni shakllantirishda ayolning o'rni masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Forum nafaqat mavzu doirasidagi masalalarni muhokama qilish, balki turli jabhalardagi funksiyalari

boshqa-boshqa, lekin maslagi yagona va burchi bir bo'lgan opa-singillarimizning o'zaro fikr hamda tajriba almashish, yangi dugonalar orttirish uchun o'ziga xos platforma bo'lib xizmat qildi, desak, xato bo'lmaydi.

**Adliya podpolkovnigi**  
**Gulchehraxon TURSUNOVA,**  
O'zbekiston Harbiy prokurorining  
katta yordamchisi



# O'N KUN AVVAL...

G'uvur-g'uvur auditoriyaga prorektor kirib keldi va birpas talabalarning joylashishini kuzatib turdi-da, o'zi ham oldingi qatorga borib o'tirdi. Uning xatti-harakatidan bugungi ma'ruza odatdagidan boshqacharoq bo'lishini yoshlar ham sezdi. Mehmonlar kelarmikan? Bir-birlari bilan taxminlarini bo'lishishga ulgurmay, auditoriyaga ikki ayol kirib keldi. Ikki ham bir xil ko'k ko'ylak va ko'k ro'mol o'ragan. Talabalar ingliz tili muallimasi Jonona Safarovnani darhol tanidi. Zamonaviy ayol timsoli bo'lgan, ilmi va ichki madaniyati bilan yigit-qizlar mehrini qozongan yosh olimaning har doim chaqna turadigan ko'zlari kirtayib qolibdi.

Ikkinchi ayol prorektorning yonidagi bo'sh joyga o'tirdi.

Talabalar ikki ayol egnidagi kiyimlar azadorlikni anglatishini bilardilar. Hissizgina salom-alikdan so'ng jimlik cho'kdi. Qandaydir og'ir jimlik. Jonona Safarova kaftlarini stolga tirab, chuqur nafas oldi, nafasidagi titroqni hamma sezdi. O'rnidan turmoqchi bo'layotgan ayolga "Tinchlan!" degandek qo'li bilan ishora qildi.

O'ziga tikilib turgan yuzlarcha nigohdan kuch olgandek qaddini tikladi va shunday so'z boshladi:

– Qadrlil talabalar, bugun siz bilan ingliz tilida emas, ona tilimizda, onamning tilida gaplashaman.

O'n kun avval onam hayot edi... Ammo turishga majoli yo'q, dard uni yengayotgandi. Shu holida ham yonida bo'lishimga yo'l qo'ymadi. "Talabalar kutadi, ularning haqqiga xiyonat qilma, borib darslaringni o'taver", dedi. O'rnimda boshqa o'qituvchi borligini aytсам ham ko'nmadi. "Meni yoningizdan uzoqlashtirmang!" deb yig'ladim. U esa

jilmaydi, qoqsuyak qo'llari bilan yuzimni siladi: "Yig'i kuch va vaqt sarflashga arzimaydi, ishingga bor, talabalaringga ko'proq keraksan, sen qaytguncha o'lmayman, so'z beraman!"

O'sha kuni darslarimni qanday o'tdim, bilmayman. Ammo uning baxtiyor nigohlarini his qilib turdim. O'qishga qabul qilinganimda, diplom himoyasida, magistrlik qalpoqlarini osmonga otayotganimiz lahzalar, doktorlikni yoqlagan kunim... u shunday baxtiyor boqqan ediki, go'yo bu nash'u namoli lahzalar menga emas, unga tegishlidek. Sevinchimni ziyoda qilgan baxtiyor nigohlar meni g'aflatda qoldirdi. Necha yilki bedavo dard bilan olishib kelayotganini bilmadim.

– Onajon, negadir sochlaringiz tez oqardi-ya?

– Rahmatli otamning sochlari yoshliklaridan oq bo'lgan ekan, bobongizga tortganman.

– Kundan kunga ozib ketyapsiz, tayyorlagan ovqatlarimiz yoqmayaptimi? Bemazami? Ba'zan sizni kuzataman, o'zingizni ovqat yeyayotgandek ko'rsatasiz...

– Qo'ysang-chi, shunaqa gaplarni, avvalo qushdek yengil qariganga nima yetsin. Hamma ishimni qo'limdan oldingiz, shunday bo'lganidan keyin ovqatim ham harakatimga yarasha bo'ladi-da.

– Toshkentga qaysi qarindoshimizni ko'rgani bordingiz? Doktoranturada o'qigan kezlaringiz bizni ham tez-tez yo'qlab boradingiz. O'sha paytlari juda sevinardim. Katta shaharda inson o'zini yolg'iz sezar ekan. Hozir o'sha kunlarni sog'inaman, birga shahar aylanganlarimiz... Yaqinda malaka oshirish kursiga boraman. Men bilan ketasizmi? Atigi bir hafta, ikki kun dam olishni birga o'tkazamiz, katta bozorlarni, bog'larni aylanamiz, halinchaklarda birga qiyqirib uchamiz.

Onamning ko'zlari charaqlab ketdi.

Rozi bo'ldilar. Men g'ofil onam nega bunchalik tez rozi bo'lganiga hayron ham bo'lmabman. Meni o'qishga kuzatib, o'zi kimyo muolaja olishga borib kelar ekan. Xuddi kimsasiz, g'arib bir ayol kabi... O'zimni kechira olmayman. U hech qachon o'z tashvishiga bizni sherik qilmadi. Bizni tashvishlarimizni esa xuddi o'zinikidek tezroq aritishga harakat qilar edi. Ko'z o'ngimizda shamdek so'nib borayotganini sezmayman, qartayishga yo'yibman... Negadir tez qariyaptilar, deb o'yladim.

Onamning ming yillik qadrdon dugonasi bor edi. Qo'shni turar edik. Bitta oiladek bo'lib ketganmiz. Eri olamdan o'tganidan so'ng tez-tez xasta bo'la boshladi. Uchta yetimi uchun yotib qolmaslikka jon-jahdi bilan tirishar edi. Katta qizi endigina o'n besh yosh, ukalari o'n, sakkiz yoshda edi. Ayol kasal holida ham tinim bilmas, orzulari osmon edi. "Qizim olim bo'ladi, ukalari ortidan ergashadi, u men kabi orzularini dalalarga ko'mmaydi, dunyo kezadi, mana, meni



aytdi deysizlar-da... kechalar bedor bo'lib bekorga kitob o'qiyotgani yo'q", deya dugonalariga gapirishdan charchamasdi. Ayollar ayrimlari uning gaplarini ma'qullashar, ba'zilar qadoq qo'llari-yu, sarg'aygan yuziga bilintirmay boqib, achinish bilan bosh chayqab qo'yishardi.

Kuzning yomg'irli bir kunida olamdan o'tdi. Qizi... O'n besh yashar qizning ikki ukasi bilan sho'r yetim bo'lib qolishini tasavvur qila olasizmi?! U o'limni ko'rgan edi. Otasi olamdan o'tgan kunni unutmagandi, og'ir edi ammo yonida g'amni yengish uchun g'amguzori – onasi bor edi.

Onasining navbatdagi ma'rakasida g'alati gap-so'zlar bo'ldi. Otinoyining aytishicha, ikki-uch yildan so'ng imonli-e'tiqodli birovi bilan qizning boshini bog'lashsa, shu uyda ismi-rasmini qilib, ichkuyov qilsa bo'larmish. Ana undan keyin ikki ukaga bosh bo'lib, ularni uylab-joylashni ham o'zlari uddalaydi. Albatta, el, qarindosh-urug' ham qarab turmaydi. Ayollar uning fikrini ma'qullashdi. Shu payt kimningdir "Menga qarang" degandek past ammo keskin ohangda "Ayollar!" degani eshitildi. Hamma ovoz kelgan tomonga qarab jim bo'lib qoldi. Gapirgan ayol marhumaning qadrdon dugonasi, qo'shnisi Barchinoy edi.

– Ayollar, – dedi u gapini chertib-chertib, – orangizda Oychuchukning "Qizim olim bo'ladi" degan gapini eshitmagan birov bormi?

– Bechora to'y-to'ychiqda ham, dalatuzda ham shu gapini aytib charchamasdi, – dedi to'rd a o'tirgan yoshi ulug'roq ayol. – Hamma eshitgan, buni.

– Otinoy, – deya gapida davom etdi Barchinoy boyagi ohangda, – siz o'tgan kunlar ichida bu oila uchun yaxshi xizmat qildingiz, xizmatigizga rozi bo'ling. Ichkuyov degan gaplar bilan qizning boshini aylantirmang. U o'qiydi! Sevib-sevilib oila quradi. Onasi, o'zi orzulagan kelajagini ikki ukasiga qurbon qilmaydi. Bunga yo'l qo'ymayman. Tirik ekanman, erim tirik ekan, Oychuchukning yetimlari birovga muhtoj bo'lmaydi. Qarindoshlari-chi, dersiz. Qarindoshlar Oychuchukning eri bilan bir vaqtda "o'lib ketgan". Tirik bo'lsalar edi, bu oila holidan bir marta bo'lsa ham xabar olishar edi.

Eshik ostonasida qishloq oqsoqoli ko'rindi. G'imirlab qolgan ayollarga erkak "Qo'zg'almang!" deya qo'li bilan ishora qildi. Ayollar orasidan ko'zlari-la Barchinoyni topdi-da, shunday dedi:

– Barchinoy, ostonada turib bu yerda bo'lgan gaplarni eshitdim. Hali Oychuchuk hayot vaqtida ham ering sen aytgan gaplarni bizga aytgan. U ko'pga bormasligini bilar edik.

Singlim, ikkovingizga ham rahmat. Asli ikkovingizning ham otalaringiz mard erkaklar edi, yaxshi onalarning tarbiyasini olgansiz. Rahmat, rahmat! Endi hamma uy-uyiga tarqalishi mumkin. Bundan keyin bu xonadonda sovuq ma'rakamarosimlar bo'lmaydi. Bo'lsa, yetimlar haqqiga xiyonat qilgan bo'lamiz. Kelin-kepchik yig'ishtirish, tozalash ishlariga qizimizga yordamlashsin, qolganlarga ruxsat.

Hamma qo'zg'aldi. Yig'idan shishib ketgan qiz kelib, Barchinoyni quchoqlab, yana achchiq-achchiq yig'ladi. Unga ukalari kelib qo'shildi.

– Qizim, – dedi Barchinoy uni o'ziga qaratib, – o'zingni qo'lga ol va unutm: yig'i, g'am kuch va vaqt sarflashiga arzimaydi. Buyog'i oson bo'lmaydi. Biroq yolg'iz emassan, men borman! Gullola bilan kim o'zarga a'lo o'qishingizni bilaman. Sen g'amda yurgan kunlar u sendan anchagina o'zib ketdi. Onangning orzulari o'zi bilan tuproqqa ko'milib ketishiga yo'l qo'yma. Ukalaringni ham ortingdan ergashtirishing kerak, qara, sendan bir qadam ajralishmayapti, ularga dalda bo'l...

Yig'i, g'am kuch va vaqt sarflashga arzimaydi. O'n kun avval onam hayot edi va tongda shu so'zlar bilan meni huzuringizga yubordi. "Sen qaytguncha o'lmayman, so'z beraman!" dedi. So'zining ustidan chiqdi. Darslarimni o'tib, ortga shamoldek yelib qaytdim. Kelsam, ko'zlari yumuq. "Onajon, men keldim!" dedim. Ko'zlarini ochishga harakat qildi, ammo ocholmadi. Oqshom qo'llarimda jon berdi...

Qadrlil talabalar, qarshingizdagi – men, o'sha yetim qizman, Oychuchukning ushalgan orzusi, ingliz tili muallimangiz Jonona Safarova. Gullola, kel yonimga, – u shunday deb o'zi kabi ko'k kiygan ayolni yoniga chorladi. – Bu olim ayol o'sha yoshlikdagi raqibim, dugonam, Barchinoy onamdan qolgan yodgorim.

Bugun dars o'rniga ikkinchi onam haqida gapirib, ehtimol, haqqingizga xiyonat qildim. Ammo o'zining uch bolasi yoniga yana uch yetimni olib, tarbiyalagan fidokor bir ota borligini, fidokor bir ona yashab o'tganini bilishingizni istadim. Men bosib o'tgan yo'l Barchinoy onamning yo'li, agar u bo'lmaganida men ham qarshingizda turmas edim.

Auditoriyaga bir muddat jimlik cho'kdi. So'ng isyonkor tabiati bilan ajralib turadigan talaba yigit o'rnidan turdi, boshqalar unga ergashdilar. Talabalar tik turib, Barchinoyga ehtiromlarini bildirdilar.



## Mushohada

“Agar televideniye xuddi hozirgidek rivojlanishda davom etsa, bugun tug‘ilgan bola 18 yoshga to‘lgach, eng ko‘p vaqtini uyquda va televizor qarshisida o‘tkazadi”, deb yozgan edi Entoni Giddens “Sotsiologiya” asarida. Olimning qanchalik haq ekanligi vaqt o‘tgach ma‘lum bo‘ladi. Umuman olganda, kufishga hojat ham yo‘q, negaki Grabovskiy kashf etgan “qora quti” o‘zining nimalarga qodirligini ancha ilgariroq ko‘rsata boshladi.

## Odamlar pult orqali boshqariladi(mi?)

Televizor juda tez fursatlarda xonadonlarga kirib bordi va qaysidir ma‘noda insoniyat hayotining mazmuniga aylandi. Ajablanarlisi shundaki, bu qadar keng ommani o‘ziga ohanrabodek jalb eta olgan boshqa shunga o‘xshash buyumni tarix hali hech qaysi zamonda ko‘rgan emas. Millionlar o‘yini futbol – faqat shu sohadan xabardor odamlarigina qiziqtiradi, lekin futbolchilarning orasida televizor ko‘rmaydigan deyarli uchramasa kerak. To‘g‘ri, qachonlardir kitob o‘qish – ajdodlarimizning sevimli mashg‘ulotlaridan biri bo‘lgan. Lekin bu mashg‘ulot bilan hamma yoppasiga shug‘ullana olmas, kitob o‘qish uchun savod kerak edi. Bugun televideniye orqali uzatilayotgan yengil-yelpi dasturlarni ko‘rish uchun esa aksincha, savodning bo‘lmagani yaxshi.

Odamlar kundalik turmushini yangiliklar, seriallar va shoularsiz tasavvur qila olmaydigan, kun tartibini TV dasturlariga qarab tuzadigan bo‘lib qoldi. Pult bilan boshqariladigan televizorlar dastavval mo‘jizadek ko‘rindi, keyinchalik biz o‘tirgan joyimizdan bir necha metr uzoqlikdagi “quti”ni boshqarishga ko‘nikib ham qoldik. Darvoqe, kim-kimni boshqarayotganini avval aniqlab olish kerak. Birgina teledasturlar birdaniga teatr, muzey, sayohat va mutolaaning o‘rnini to‘ldirgandek bo‘lyapti. Hech kimga ma‘lum bo‘lmagan axborotlar, madaniy hordiq chiqarishga yordam beradigan dasturlarning aynan televizor orqali uzatilayotganini hech kim inkor qilmaydi, biroq ekran ortidan dunyoni tanir ekanmiz, biz mustaqil izlanish va fikr yuritish qobiliyatidan asta-sekinlik bilan mahrum bo‘lib boramiz. San‘atga, go‘zallikka bo‘lgan ehtiyoj va bu tushunchalarning asl mohiyati yo‘qolib ketadi. Televizor qarshisida ulg‘ayayotgan yoshlarimizning Vatanga, hayotga, ota-onasiga nisbatan munosabati ham avvalgidek emas, nazarimizda.

## O‘quv-uslubiy yig‘in

## Soha mutaxassislarning malakasi oshirildi

2024-yilning 1-iyulidan 1-avgustiga qadar yurtimizda yong‘in xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha “Dolzarb 30 kun” tadbiri bo‘lib o‘tmoqda.



## TELEVIZORNI O‘CHIRIB QO‘YING!

## “Nonushta”ga nima tortildi?

Deyarli barcha o‘smirlar o‘zlari sevgan qahramonlarga taqlid qiladi, hattoki ilosiz vaziyatlarda ham...

“Agar muammolaringiz ko‘payib ketib, tushkunlikka tushib qolgan bo‘lsangiz, tonggi xabarlarini tomosha qilmaganingiz ma‘qul” – maslahat beradi xorij ruhshunoslari. Darhaqiqat, ko‘proq auditoriyani jalb qilish hamda reytingini oshirish maqsadida ko‘plab xorijiy telekanallar o‘z tomoshabinlarini tong-sahardan suv toshqinlari, yong‘inlar va qotilliklardan tayyorlangan “nonushta” bilan siylaydi. “Katta dunyodagi kichkina ko‘ngilsizliklar”dan voqif bo‘lgan aholi kun bo‘yi ularning ta‘sirida yurganidan keyin qarabsizki, tushkunlikkacha bor-yo‘g‘i to‘rt qadam qoladi!

Olimlarning aniqlashicha (*buni aniqlash ham shart emas, nazarimda*), ekran ortida bo‘layotgan voqealar odamlarning ruhiyatiga ta‘sir etar ekan. Masalan, navbatdagi fantastik filmni tomosha qilib bo‘lgach, tashqaridagi shovqindan “o‘zga sayyoraliklar kelgan bo‘lsa-ya!” degan fikrga kelishingiz va buni odatiy holdek qabul qilishingiz mumkin. Yalmoz‘iz kimpimiz borligiga ishonadigan 5 yoshli bola esa bunday filmni ko‘rib, har kuni uxlashdan oldin karavoti ostiga mo‘ralaydigan bo‘lib qolishi tabiiy. Afsuski, ko‘p ota-onalar farzandlari televizordan qanday dasturlarni, qancha muddat

davomida tomosha qilishiga deyarli e‘tibor bermaydi.

## “Tilbuzar” yoxud siz bilgan televizor

Axborot asri farzandlari biz bilgan “berkinmashoq”, “quvlashmashoq”, “lafta” o‘yinlari haqida, hatto eshitmagan ham. Ular loydan uy yasash yoki daraxt ortiga berkingan do‘stini topishdan ko‘ra, “urush-urush” o‘ynashni afzal ko‘radi. O‘yinchoqlari ham shunga yarasha: vahimani. Ko‘cha-ko‘yda avtomat ko‘tarib olib, “paq-paq!”, “otaman!”, “o‘lding!” deb baqirib yurgan bolalarni ko‘rib qolsangiz, hayron bo‘lmang, ular shunchaki o‘ynayapti. O‘yinlarning bu qadar “dahshatli” ko‘rinishiga ega bo‘lishida TV bilan birga kompyuterning ham hissasi bor. Ajablanarli hech narsa yo‘q. Televizor ota-onasi kun bo‘yi ishda bo‘ladigan bolakaylarning asosiy va eng sevimli ovunchog‘iga aylanib qoladi.

Ma‘lumot o‘rinda aytish kerakki, Garvard universiteti olimlari bola 18 yoshga to‘lguncha teleekran orqali 180 mingdan ortiq zo‘ravonlik sahnalariga guvoh bo‘lishini aniqladi. Ulardan 80 mingtasi – qotillik. Oddiygina reklama bola organizmida salbiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirishi mumkin ekan. Britaniya olimlarining tadqiqotlariga ko‘ra, bir yil mobaynida “dasturlar orasidagi tanaffuslar”ni muntazam tomosha qilib borgan olti yoshli bolalar qo‘shish, ayirish, o‘qish kabi boshlang‘ich maktab amallarini o‘zlashtirishda televizor ko‘rmaydigan tengdoshlaridan 15 foizga orqada qolar ekan. Bundan tashqari, reklamalar milliy urf-odatlarimiz, tilimiz uchun yaxshigina xavf tug‘dirmoqda. Reklamalardagi “Hammasi nol”,

“...Telefoningga yuklab ol!”, “Sinib qoldingmi?” kabi xitoblar yoshlarning shusiz ham “neologizm”larga boy bo‘lgan lug‘atini yanada “boyitish”ga xizmat qilayotganini ularning gap-so‘zlaridan anglab olish qiyin emas.

Ko‘p vaqtini TV ko‘rishga sarflaydigan bola tengdoshlari uni tushunmayotganligidan aziyat chekadi. Chunki uning dunyoqarashi multfilm va kino qahramonlarining boshdan kechirganlari asosida shakllanadi. Afsuski, bugun ular reallikdan uzoqlashib ketgan. Televizorda aks etadigan hayot aslida emas, ba‘zan juda qora, ba‘zan esa haddan tashqari oq ranglarda tasvirlanishini yaxshi bilamiz.

Faqatgina tomosha qilish emas, xonadonda televizorning tez-tez “so‘zlab” turishi boladagi aqliy qobiliyatini susaytirishi ma‘lum bo‘ldi. Ota-ona vaqtini oynayi jahon qarshisida o‘tkazar ekan, farzandi bilan kam muloqotda bo‘ladi va uning ko‘p savollarini javobsiz qoldiradi. Bu bolaning nutqi yaxshi rivojlanmay qolishi, maktabdagi fanlarni o‘zlashtirishda muammolar yuzaga kelishiga olib keladi.

– Bola televizor orqali dunyoni tanir ekan, ota-onasi, albatta uning yonida o‘tirib, bo‘layotgan voqealarni tushuntirib borishi kerak. Milliy telekanallarimiz bugun 7-11 yoshdagi bolalar uchun maxsus ko‘rsatuvlarni kamdan kam tayyorlaydi. Oila a‘zolari yig‘ilib o‘tirgan “prym-taym” vaqtida esa asosan, seriallar namoyish etiladi. Buning qanday zararli jihatlari bor? Ota-onasi serial tomosha qilayotgan paytda bola ham ularga “sherik” bo‘ladi. Zamonaviy filmlarning aksariyatida salbiy xarakterdagi personajlar (*mafia va bezorilar*) ijobiy qahramon sifatida ko‘rsatiladi. 7-11 yosh esa aynan bolaning yaxshini yomondan ajratadigan davri. 3-6 yoshdagi bolaga “Bunday qilma, bu yomon”, deb tushuntirangiz, u avtomatik ravishda sizga quloq soladi, lekin keyingi bosqichda farzandingiz hamma narsaning sababini bilishga harakat qiladi. “Nega shunday?” degan savolga javob qidiradi, – deydi psixolog Zilola Bozorova.

Bola tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan uy bekaları, turgan gapki, asosiy vaqtini televizor qarshisida o‘tkazadi. Doimiy ravishda ota-onasining serialga “mixlanib” o‘tirganini ko‘rayotgan bola kitoblarga bo‘lgan muhabbati bilan maqtana olmaydi, albatta. Xayriyatki, milliy telekanallarimiz xalqimiz mentalitetiga xos ko‘rsatuvlar tayyorlashga alohida e‘tibor qaratib kelmoqda. Muammo shundaki, tomoshabinlarimiz bugungi kunda berilayotgan aksariyati shunchaki umumiy, “biz bilgan” gaplardan iborat ko‘rsatuvlardan zerikib, pullik bo‘lsa ham, kabel orqali Rossiya telekanallarini ko‘ra boshladi. Oqibatda, hatto Rossiyaning o‘zida ham yoshlar tarbiyasi uchun juda xavfli deb topilib, qattiq tanqid ostiga olingan “Dom-2” va shunga o‘xshash realiti shoular bizning hayotimiz bilan aralashib ketyapti. Axloqsizligi tufayli “mashhur” bo‘lgan shou qahramonlari yoshlarimizga “qanday yashash kerak”ligini o‘rgatyapti. Vaholanki, bizda yaxshi ko‘rsatuv yoki film tayyorlash uchun hamma imkoniyatlar bor.

Mazkur oylik doirasida soha xodimlari tomonidan yong‘in xavfining oldini olishga qaratilgan turli profilaktik tadbirlar, ko‘rgazmali mashg‘ulotlar hamda o‘quv yig‘inlari o‘tkazib kelinmoqda.

Sharqiy harbiy okrug tasarrufidagi Farg‘ona garnizonidagi harbiy qismda Mudofaa vazirligi yong‘in nazorati boshqaruv organi ofitserlari bilan uch kunlik o‘quv-uslubiy yig‘in bo‘lib o‘tdi.

Dastlab yig‘in rahbari tomonidan yig‘inning maqsadi va rejasini yetkazildi, shuningdek ishtirokchilarning yil davomida amalga oshirgan ishlari borasida ma‘ruzalari tinglandi. Yong‘in nazorati organlari tomonidan 2024-yilning birinchi yarim yilligi davomida bajarilgan ishlari tahlil qilinib, faol mutaxassislar e‘tirof etildi.

Shundan so‘ng okrug tasarrufidagi harbiy qism negizida mavjud yong‘in o‘chirish bo‘linmasi shayligi tekshirilib, zamonaviy avtomatik yong‘indan xabar berish va o‘chirish uskunalari borasida bilimlar berildi.

Podpolkovnik Zokir KENJAYEV, Mudofaa vazirligi yong‘in xavfsizligi xizmati boshlig‘i

Visola QARSHIBOYEVA



# LIDERLIK QOBILIYATINI YUKSALTIRISH (AQSh armiyasi misolida)

Liderlik – bu harbiy xizmatchilarga belgilangan topshiriqni bajarish va hamjihatlikni mustahkamlash, shuningdek yo‘nalish ko‘rsatish hamda motivatsiya berish orqali ta‘sir o‘tkazish jarayoni hisoblanadi. Qo‘yilgan maqsadga erishishda harbiy xizmatchilarni ilhomlantirish va ularga ta‘sir o‘tkazish kabi vazifalarni o‘z zimmasiga olishga tayyor har bir harbiy xizmatchi “Armiya lideri” bo‘lishi mumkin.



yorliqlar bilan taqdirlanmasa, boshlang‘ich liderlik kursi unga ko‘tarilish ballarini bermaydi.

Armiya o‘z liderlarini kurslar va akademiyalarda o‘qitish orqali ko‘p bosqichli yondashuv yordamida rivojlantiradi. Mazkur yondashuv kelajakdagi liderlarga yetakchilikni o‘qitishning tan olingan usullarini taqdim etadi. Liderlik bo‘yicha ta‘limning keyingi bosqichi Texas shtatining Fort-Bliss shahrida joylashgan “United States Army Sergeants Major Academy” AQSh armiyasining serjant-mayorlari akademiyasidagi “Advanced Leader Course (ALC)” takomillashtirilgan liderlik kursida davom ettiriladi. Takomillashtirilgan kurs dasturi 82 soatdan iborat bo‘lib, har yili uni 14 ming nafar armiya liderlari bitirib chiqadi.

Treninglarda asosiy e‘tibor liderlik lavozimlariga tayinlangan harbiy xizmatchilarning malakasini oshirishga va liderlik sifati shakllanganlarni aniqlashga qaratiladi. Bunda ishtirokchilar to‘rtta jangchidan iborat guruhlariga bo‘linadi. Kurs davomida har kuni guruh liderlari o‘zgaradi. Kurs ishtirokchilariga yo‘l-patruil bazasini yaratish, pistirmaga javob berish kabi turli mavzularda mashg‘ulotlar o‘tiladi. Ertasi kuni ishtirokchilar kunduzi va kechasi yerusti navigatsiyasini mashq qiladilar. Mashg‘ulotlar o‘zlashtirilganidan keyin tungi mashqlar boshlanadi. Tungi mashg‘ulotlar turli vaziyatlarda guruhni boshqarishga qaratilgan bo‘ladi. Mashg‘ulotlarning beshinchi kunida guruhlar o‘zaro musobaqalashadi. Musobaqalarda asosiy e‘tibor liderlarning guruhni boshqarishiga qaratiladi.

Musobaqalar davomida ishtirokchilar har xil ssenariylar bo‘yicha harakatlanishi mumkin. Misol uchun, birinchi guruhga belgilangan hududda yo‘l-patruil posti yaratish va qo‘riqlashni amalga oshirish buyuriladi. Birinchi guruh belgilangan hudud tomon harakatlanayotgan vaqtda ikkinchi guruh tomonidan pistirmaga uchraydi. Guruh lideri ushbu vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilib, guruhni oqilona boshqarishi va belgilangan vazifani bajarish uchun harakatni davom ettirishi kerak bo‘ladi.

AQSh armiyasida liderlik lavozimi “Team leader”, ya‘ni 3-4 kishilik guruh liderligidan boshlanadi. Guruh lideri – liderlik lavozimlari ichida eng quyi daraja va eng muhim lavozimlardan biri hisoblanadi. Ular otryad lideriga bo‘ysunadi va serjantlarni qo‘llab-quvvatlaydigan birinchi bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi.

Guruh lideri lavozimiga ko‘tarilish uchun AQSh armiyasida kamida 2-3 yil tajribaga va kamida “E-5” darajali serjant unvoniga ega bo‘lish kerak. Ba‘zi hollarda esa IV sinf mutaxassis serjant unvonidagi harbiy xizmatchida guruh lideri lavozimiga ko‘tarilish imkoniyati bo‘lishi mumkin. Bu lavozimga harbiy xizmatchining ish tajribasi, xulqi va liderlik sifatlaridan kelib chiqib, otryad lideri tomonidan tavsiya etiladi va serjantlar komissiyasi tomonidan tayinlanadi.

Liderlik yo‘nalishi bo‘yicha guruh lideridan keyingi lavozim “Squad leader”, ya‘ni otryad lideri hisoblanadi. Ushbu lavozimga ko‘tarilish uchun guruh lideri sifatida belgilangan vaqt davomida xizmat qilish va shtab serjanti unvoniga ega bo‘lish kerak. Otryad liderining qo‘l ostida bir yoki bir nechta guruh liderlari xizmat qiladi. Otryad lideri 7-10 harbiy xizmatchidan tashkil topgan guruhni urush davridagi vazifalarga tayyorlaydi. Ular bo‘linmaga qo‘yilgan vazifani bajarishda o‘z jamoasini boshqaradigan manyovrlarni amalga oshiradigan taktik markaz hisoblanadi. Muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, ularga yana imkon beradi va mahoratini qanday oshirish kerakligini o‘rgatadi.

Shaxsiy tarkibga motivatsiya berishda liderning roli – bo‘ysunuvchilarning ehtiyojlari va istaklarini tushunish, individual motivlarni muvofiqlashtirish hamda jamoaviy maqsadlarga aylantirish, shuningdek, boshqalarga ta‘sir o‘tkazish, kattaroq maqsadlarga erishishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, serjantlarning liderlik xususiyatlarini oshirishga qaratilgan tayyorgarligi hozirda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ushbu tayyorgarlik nafaqat komandirlik lavozimidagi harbiy xizmatchilar orasida, balki har bir harbiy xizmatchining ushbu xususiyatlarini oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Sababi jang maydonida bo‘linma komandiri safdan chiqsa, uning o‘rnini egallashga har bir harbiy xizmatchi tayyor bo‘lishi kerak.

Harbiy xizmatchilarning liderlik xususiyatlarini takomillashtirishni aksariyat xorijiy armiyalar qisqa mavzu sifatida o‘rganadilar. AQSh armiyasining ushbu sohada tajribasi esa murakkab tizim ko‘rinishida ishlab chiqilgan bo‘lib, unga alohida e‘tibor qaratilgan. Mazkur tizim yuqoridagi o‘quv kurslar yordamida mustahkamlanib, hozirda mamlakat armiyasining professional harbiy xizmatchilariga qo‘yilgan talablardan biri bo‘lib qolmoqda.

**Sarvarbek QAHRAMONOV,**  
Mudofaa vazirligi Merganlar tayyorlash  
markazi katta yo‘riqchisi

AQSh armiyasida liderlarni tayyorlash murakkab tizim ko‘rinishida ishlab chiqilgan bo‘lib, unga alohida e‘tibor qaratilgan. Xizmat lavozimi pog‘onalarida ko‘tarilib borishi bilan harbiy xizmatchilar o‘zlarining harbiy kasbiy mutaxassisliklari bo‘yicha bilim va tajribaga ega bo‘ladi hamda bu ko‘nikmalarni o‘zlashtirgani sababli turli darajalarga ko‘tariladi. Buning uchun harbiy xizmatchi mamlakat hududida joylashgan 33 ta “US Army NCO Academy” AQSh armiyasining serjantlar akademiyalarining birida 1 oy davom etadigan “Basic Leader Course”, ya‘ni boshlang‘ich liderlik kursini tugallashi kerak.

Mazkur kurs AQSh armiyasi serjantlarining ilk malaka oshirish kursi bo‘lib, mutaxassis serjantlarga va kaprallarga liderlik asoslarini o‘rgatadi. Kurs dasturiga yetakchilik qobiliyatlari, o‘quv va jang olib borish ko‘nikmalari singari mashg‘ulotlar kiradi. Boshlang‘ich liderlik kursida o‘qish

jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari, saf tayyorgarligi, ijodiy insho yozish, individual mashg‘ulotlarni o‘tkazish, omma oldida nutq so‘zlash, solishtirma va taqqoslash insholarini yozish kabi fanlardan 70 foiz hamda undan yuqori ball to‘plashi kerak bo‘ladi.

Bundan tashqari, harbiy xizmatchilar quyidagi sinovlardan o‘tishi kerak:

- zo‘ravonlik/tajovuzga javob berish va oldini olish mavzusida insho yozish;
- yetakchilik va hamkorlikdagi guruh ishini haftalik baholash;
- rezyume yozish;
- armiya jangovar fitness sinovi.


Boshlang‘ich liderlik kursi harbiy xizmatchining harbiy kasbiy mutaxassisligiga tegishli emas. Liderlik kursi bitiruvchilariga faqat serjantning malaka oshirganini bildiruvchi nishon beriladi. Agar harbiy xizmatchi faxriy

uchun xizmat davomida jismoniy tayyorgarlik fanidan belgilangan ballni to‘plash talab qilinadi. Serjantlar akademiyasining boshlang‘ich liderlik kursini eng yuqori ball bilan bitirgan birinchi va ikkinchi harbiy xizmatchilar “Ilg‘or bitiruvchi” hamda “Faxriy bitiruvchi” yorliqlarini olishi mumkin.

Harbiy xizmatchilar o‘rtacha 6 ball bilan baholanadi va bitiruvchilar



# SUYAK YEMIRILISHINING DAVOSI BORMI?



Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, hozir dunyo aholisining 20 foizi tayanch-harakat tizimi kasalliklaridan aziyat chekmoqda. Eng yomoni, bunday xastaliklar nogironlikni keltirib chiqaruvchi omillar orasida yetakchi o'rinda. Xavotirli jihati, keyingi yillarda COVID-19 asoratlari tufayli suyak bo'g'imlari yemirilishi tashxisi qo'yilgan bemorlar soni sezilarli darajada ortmoqda.

Agar statistik tahlillarga murojaat qilsak, pandemiyagacha bo'lgan davrdan to hozirgi kungacha mazkur xastalikka chalingan bemorlar soni 3-4 barobar ortganini ko'ramiz. Ushbu kasallikning og'ir bosqichlarida yuqori texnologik operatsiya hisoblanadigan endoprotezlash amaliyotiga muhtoj bemorlar soni ko'payib bormoqda.

Shunday kasalliklardan biri aseptik nekrozdir. Bu og'ir kasallik tibbiyotda son suyagi boshchasining avaskulyar osteonekrozi deb ham ataladi. U suyak to'qimasida qon oqimi vaqtincha yoki doimiy buzilishi oqibatida yuzaga keladi. Sodaroq tushuntirsak, tanamizdagi suyaklar bir-biridan tog'ay bilan ajralib turadi. Yuzalari bo'g'im paylari bilan mustahkamlangan. Ular harakat chog'ida yuzaga keladigan tashqi zarbalarga qalqon bo'ladi. Bo'g'imlar ichki qavati esa maxsus parda bilan qoplangan bo'lib, o'zidan suyuqlik chiqarib turadi va shu tufayli bo'g'imlar elastikligi ortadi hamda harakat-tayanch vazifasini o'taydi.

Son suyagi boshchasi tananing shu qismidan o'tgan bitta arteriya bilan oziqlanadi. Agar unga qon borishi buzilsa yoki to'xtasa, bo'g'imlar kislorod va boshqa hayotiy zarur moddalarga to'yinmasligi oqibatida nekroz, ya'ni hujayra va to'qimalar nobud bo'lish jarayoni boshlanadi. Nekroz o'chog'i kattalashgani sayin son suyagi boshchasi o'z mustahkamligini yo'qotib, tana og'irligiga bardosh berolmay qoladi. Bora-bora tananing bu qismi shunchalik mo'rt bo'lib qoladiki, u jismoniy harakatlar ostida xuddi tuxum po'chog'idek uqalana boshlaydi. So'ng chanoq-son bo'g'imida kuchli og'riqlar yuzaga kelib, harakat cheklanadi.

## Sabablari

Kasallikning yuzaga kelishi turli omillar bilan bog'liq. Tromboz, tromboemboliya, gormonal vositalar, bo'g'imlar shikastlanishi, spirtli ichimliklar shular jumlasidan. Qolaversa, mutaxassislar aseptik nekroz og'ir revmatik kasalliklar hamda COVID-19 asorati sifatida ham shakllanishini ta'kidlamog'ida. Ya'ni pandemiya davrida ayrim bemorlar gormon preparatlarini palapartish qo'llagani ularda avaskulyar osteonekroz paydo bo'lishiga olib kelgan.

Chunki bu preparatlar D vitamini va kalsiyning suyakka yetib borishiga to'sqinlik qiladi. Qolaversa, son suyagi boshchasini oziqlantiruvchi tomirlardan o'tayotgan qon quyuqlashishi bu bo'g'imning normal oziqlanishiga to'sqinlik qiladi. Xuddi shunday omillar aseptik nekrozga chalingan bemorlar sonining keyingi yillarda 3-4 barobar ortishiga olib keldi. Tahlillarimizga ko'ra, hozir bu holat ko'proq erkaklarda kuzatilmoqda.

## Kasallik quyidagi sabablar natijasida ham kelib chiqishi mumkin:

1. Kamharakatlilik. Insonning jismoniy harakati qanchalik kam bo'lsa, suyaklar ham shunchalik zaiflasha boradi.
2. Zarur vitaminlarning yetishmasligi.
3. Kalsiyning so'rilishiga to'sqinlik qiladigan oshqozon-ichak kasalliklari.
4. Buyrak va jigar yetishmovchiligi.
5. Nasliy moyillik.
6. Zararli odatlar (spirtli ichimlik ichish va tamaki iste'moli).
7. Bo'yning yoshga nisbatan past bo'lishi.
8. Kun davomida o'tirib ishlash.
9. Endokrin kasalliklar (qandli diabet, buxoq).

## Davolash choralari

Kasallikni davolash bemorning holatiga qarab belgilanadi. Agar kasallikni gormonal o'zgarishlar keltirib chiqargan bo'lsa, maxsus gormonal dori vositalar buyuriladi. Davolash jarayonida bemor sog'lom turmush

tarziga rioya qilishi, ko'ngilsiz hodisalardan yiroq bo'lishi kerak.

Unutmang, dori vositalari bilan bir qatorda kalsiy va D vitamini bilan boyitilgan vitaminlar yig'indisini qabul qilishingiz zarur. Maxsus jismoniy mashqlar va uqalash muolajalari ham ijobiy samara beradi.

## Tizza bo'g'imlari artrozi

Tizza bo'g'imining artrozi eng keng tarqalgan ortopedik patologiyalardan biri. Bu tizza bo'g'imlarining surunkali kasalligi bo'lib, tog'ayni shikastlanishi, ingichkalashishi va suyakni yemirilishiga olib keladi. Doimiy og'riq sindromi tufayli bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada yomonlashtiradi va nogironlikni keltirib chiqaradi.

Kelib chiqish sabablari:

- genetik moyillik;
- shikastlanishlar;
- inson yoshiga mos

kelmaydigan jismoniy xatti-harakatlar (masalan, yoshi keksa odamlarga asfaltida yugurish zarar keltiradi. Bu mashq paytida tizza bo'g'imiga sezilarli bosim tushadi, distrofik o'zgarishlar tog'aylarga shikast yetadi);

● ortiqcha vazn va semirish;

● artrit – tizza bo'g'imlarining yallig'lanishi sinovial suyuqlik ko'payishiga va uning sifati buzilishiga olib keladi;

● metabolik kasalliklar, masalan, kalsiy moddasining yetarli emasligi suyaklarda va tog'aylarda distrofik o'zgarishlarga olib keladi;

● yassiyoqlik – og'irlik markazini siljitadi va bo'g'imlarga noto'g'ri kuchlanish tushadi;

● stress va asab tarangligi organizmda metabolik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

## Davolash choralari

Muvaffaqiyatli davolashning muhim shartlaridan biri o'z vaqtida tashxis qo'yish va erta davolashni boshlashdir. Bu remissiya muddatini uzaytiradi, tog'ay va suyak shikastlanishi hamda tizza bo'g'imi deformatsiyasining oldini oladi. Umuman olganda, bu kasallik ikkilamchi, ya'ni boshqa kasalliklar fonida paydo bo'ladi, masalan semirish, jarohatlanish, stress kabi. Shifokor mana shu omillarning hammasini hisobga olgan holda muolajalarni boshlaydi. Kasallikni davolashda asosiy e'tibor tog'ay to'qimalarini tiklashga qaratiladi. Shu bois jarayon uzoq davom etadi. Bemorga dori-darmonlar bilan bir qatorda badantarbiya, har turdagi fizioterapiya muolajalari buyuriladi. Davolanish chog'ida bemorning sog'lom turmush tarziga amal qilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

## Eng muhimi...

Taomnomangizga e'tiborli bo'ling! Suyaklar mustahkamligini ta'minlash uchun organizm har kuni 1,2-1,5 g kalsiyga muhtojlik sezadi. Bu ehtiyojni qondirishning eng yaxshi yo'li sut mahsulotlarini iste'mol qilishdir. Meva va sabzavotlar tarkibida kalsiy bor yo'g'i 0,4-0,5 grammni tashkil qiladi.

Organizmda kalsiyga bo'lgan kundalik ehtiyojini qoplash uchun quyidagi ro'yxatdagilardan birini tanlab, iste'mol qilib turishingiz kerak:

- yarim litrgacha sut;
- 100 g (1 piyola) tvorog;
- 2-3 tilim pishloq;
- 2 piyola qatiq.

**Gulnora HOJIMURODOVA**  
tayyorladi.



Aviamodel



# SPORTCHILARIMIZ YANA JAHON NIGOHIDA

Xalqaro aeronavtika federatsiyasining kalendar rejasiga asosan, Qozog'istonning Olmaota shahrida sportning aviamodel turi bo'yicha Jahon kubogi bosqichi va Yevroosiyo kubogi musobaqalari bo'lib o'tdi.

Bayserke o'quv-sport aerodromida beshta mamlakat, jumladan AQSh, Mo'g'uliston, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'istonning 100 ga yaqin sportchilari o'zlarini yasagan samolyot modellari va ularning ochiq osmonda parvoz qilish imkoniyatlarini namoyon etdilar.

Bellashuvlarda ishtirok etgan O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining aviamodel sportchilaridan iborat terma jamoa yuqori natijalarga erishib, mamlakatimiz sharafiga munosib himoya qildi.



Qizg'in va shiddatli kechgan bahslarda yurtdoshlarimiz quyidagi natijalarga erishdi:

**Jahon kubogi bosqichida:**

- Ayder Bekirov (Toshkent v.) F-1-A-sinfida 1-o'rin;
- Alyor Yo'lbarsov (Andijon v.) F-1-A-sinfida 3-o'rin;
- Dmitriy Kovalenko (Toshkent v.) F-1-C-sinfida 2-o'rin;
- Valeriy Vardanyan (Farg'ona v.) F-1-C-sinfida 3-o'rin.

**Yevroosiyo kubogida:**

- Dmitriy Kovalenko (Toshkent v.) F-1-C-sinfida 2-o'rin;
- Alyor Yo'lbarsov (Andijon v.) F-1-A-sinfida 3-o'rin.

Har ikkala kubok musobaqalarida sportchilarimiz jamoa hisobidan ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

"Vatanparvar" tashkiloti jamoasi ushbu nufuzli musobaqalardan 1 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza medal bilan qaytgan sportchilarni qutlaydi.

"Biz – vatanparvarlarmiz!"



# BOLALARNING VAQTI MAZMUNLI O'TKAZILDI

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Surxondaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Uzun tumani o'quv sport-texnika klubi tomonidan Malandiyon mahallasidagi "Janub gavhari" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida "Biz – vatanparvarlarmiz!" mavzusida harbiy-vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi.

Bolalar va o'smirlarning bo'sh vaqtini yanada mazmunli o'tkazish maqsadida tashkil etilgan mazkur tadbir mavzusi Vatanga muhabbat, o'qish va sportga qiziqish xususida bo'ldi.

Uchrashuv davomida "Vatanparvar" tashkiloti tizimidagi "Karting", "Motokross", "Duatlon", "Pnevmatik quroldan o'q otish" bo'yicha sport seksiyalarining ko'rgazmalari namoyish etildi. Qiziquvchan bolalar sport texnikalari va vositalaridan sport murabbiylari ko'magida foydalanib ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldi. Tashkilotdagi sportning texnik va amaliy turlari seksiyalarida qatnashish istagini bildirgan o'quvchilarga zarur maslahatlar va yo'nalishlar berildi.

Shuningdek, mutaxassislar tomonidan "To'g'ri harakatlan!"



mavzusida o'tkazilgan o'ziga xos kichik seminar-treningda bolalar yo'l harakati qoidalarini bo'yicha o'z bilimlarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Yakunda tadbirida faol ishtirok etgan o'g'il-qizlar tashkilotning esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Kengash yig'ilishi



# VAZIFALAR BELGILAB OLINDI

Chirchiq harbiy prokuraturasi tomonidan muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishi o'tkazildi.

Unda harbiy qism va muassasalarning 2024-yilning 6 oyi davomida huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyati ko'rib chiqildi.

Jarayonda harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish, yurt himoyachilari va ular oila a'zolarining huquq va manfaatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarish yo'nalishlarida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijalari muhokama qilindi.

Shuningdek, Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari va xodimlari, ularning oila a'zolari va pensionerlarning ijtimoiy himoyasi, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ishlar natijalariga e'tibor qaratildi.

Yakunda tegishli qarorlar qabul qilinib, kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.

**Adliya podpolkovnigi  
Ixtiyor AKBAROV,  
Chirchiq harbiy  
prokurori**

Profilaktika

# O'RGANISHLAR OLIB BORILDI

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori B. Kudratxodjayev tomonidan Toshkent viloyati tumanlarida tungi xizmat holatini o'rganish tadbirlari davom ettirilmoqda.

Xususan, Yangiyo'l shahridagi Yangiobod mahallasida huquq-tartibot maskani, Fayzli mahallasida barpo etilgan RK-1 qozonxonasi va Mustaqillik mahallasidagi "Alukabel Payrav" qo'shma korxonasi turli kabellar ishlab chiqaruv sikli ish jarayoni o'rganildi.

Shuningdek, Yangiyo'l shahri qo'riqlash bo'limining yangi qurilgan binosi bilan tanishildi. Shu bilan birga, Navro'z mahallasida yettilik faoliyati o'rganilib, tegishli tavsiyalar berib o'tildi.

Bu kabi tadbirlar viloyat bo'ylab izchil davom etmoqda.

**Adliya polkovnigi  
Odil O'SAROV,  
Toshkent harbiy prokurori**

Hay'at yig'ilishi



# FAOLIYAT SARHISOBI

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori B. Kudratxodjayev raisligida navbatdagi hay'at yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Videokonferens-aloqada mahkama va barcha hududiy harbiy prokuraturalar xodimlari ishtirok etdi.

Jarayonda harbiy prokuratura organlari tomonidan joriy yilning 6 oyida yangi tahrirdagi Konstitutsiya, boshqa qonun va qonunosti hujjatlari asosida amalga oshirilgan ishlar natijalari ko'rib chiqildi.

So'ngra Qurolli Kuchlarda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniyligni mustahkamlash, harbiy xizmatchilar hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi faoliyat sarhisob qilindi hamda kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.

**Adliya kapitani  
Mahmud ARTIKOV,  
O'zbekiston Harbiy prokuraturasi  
bo'lim katta harbiy prokurori**



## KO'RINMAS KO'RKIMIZ



Inson hayotga kelar ekan, sadoqat tuyg'usi uning o'sib ulg'ayishi davomida shakllanib, mustahkamlanib boradi. Sadoqat o'zi nima?

Tasavvur qiling, do'stingiz sizga ishonib aytgan sirni o'z yelkangizda olib yurasiz. Mana shu sir yelkangizdan tushib ketmasligi yoki tushirib yubormasligingiz – bu sizning do'stingizga bo'lgan sadoqatingizni ifodalaydi. Bu oddiy so'z yoki oson vazifadek tuyulishi mumkin, lekin buning mas'uliyati juda katta va og'ir.

Bilasizmi, sadoqat qaysidir ma'noda insonga farz sifatida berilgan in'omlardan biridir. Afsuski, ayrim insonlar ayni zamonda bu buyuk in'omning, sadoqatning teskarisi – xiyonat bilan hayot kechirmoqda. Demakki, sodiqlik tuyg'usi bugunga kelib, ba'zi odamlarning qalbigacha singib bormagan va ular uchun oddiy so'zga aylanib qolgan. Bu albatta, achinarli. O'rni kelganda, aytish mumkinki, hali yosh bo'lsam ham atrofimni sadoqat tuyg'usiga ega yaqin insonlar bilan to'ldira olmadim, hammasi qaysidir jabhada pand berib, sodiqlik ro'yxatimdan birin-ketin chiqib borayotir.

Sodiqlik so'zini tushunish uchun uni his qilib ko'rish kerak, o'zimizga "Men yaqinlarimga nisbatan sodiqmanmi?" deya savol berib ko'rishimiz zarur. Zero sadoqat insonning ko'rinmas ko'rkidir.

Ahad NAZAROV,  
TDSHU xalqaro jurnalistika  
yo'nalishi talabasi

## VIRTUAL O'YINLAR ISKANJASI

Bugun virtual olamdagi o'yinlar ba'zi tengdoshlarimizning qimmatli vaqtini o'g'irlayotgani sir emas. Vaqtimizni nimaga sarflasak, bu faoliyat kelajagimizga o'z ta'sirini ko'rsatadi.



Global tarmoqda dunyo yoshlarini o'z domiga tortib borayotgan bunday "ovunchoqlar" oz emas. Ulardan biri "PUBG" (*Player Unknown's Battlegrounds*) bo'lib, uni "noma'lum o'yinchining jang maydoni" deb tarjima qilsak bo'ladi. Ma'lumotlarga ko'ra, ushbu onlayn o'yin 2017-yil 23-martda "Windows" operatsion tizimi uchun Koreyaning "PUBG corporation" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Ikki yil oldin o'yinning mobil varianti ham yaratildi. O'yin shartiga ko'ra, 100 nafar ishtirokchi bir orolga tushiriladi. O'yinchilar yakka, juft, uchlik va to'rtlikka bo'linib, bir-birlari bilan tirik qolguncha jang qiladi.

Universittdagi o'qishdan uyga qaytar ekanman, har kuni mahallamiz boshida to'p-to'p bo'lib yig'ilib turgan qo'shni bolalarni ko'raman. Odatda, ular bir joyda to'planib, mobil qurilmasida o'yin o'ynab o'tiradi. Buning nimasi ajablanarli, bugun katta-kichikda telefon bo'lsa, deyishingiz mumkin. Ammo bir kuni telefonga butun e'tiborini berib o'tirgan o'sha ukalarimning o'zaro suhbatini beixtiyor qulog'imga chalindi.



tomonlari haqida ko'p yozish mumkin. U yoshlarning nafaqat ruhiyatiga, balki tarbiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, o'yin tekin emas, u uchun ma'lum mablag' talab etilar ekan. Insonni jaholatga, qotillikka undovchi bu kabi o'yinlarni o'ynayotganlarga e'tiborsiz bo'lmaylik.

Gaplaridan seskanib ketganim rost. Ular: "O'ldir!", "Otib tashla!", "Qoch!"... derdi tinimsiz.

Mahalladosh bolalarning bu ishiga befarq bo'lolmadim. Ularga yaqin borib, qanday o'yin o'ynayotganini so'radim. Ular baravariga "PUBG" deb javob berdi. Uyga borib, "o'yinchi" bolalar bilan suhbatimzni eslayman. Menga "PUBG" deganlarning ba'zilar telefonda boshini ko'tarmay javob bergani ko'z o'ngimda gavdalandi. O'rganayotgan kasbim – jurnalistika ishtiyoqididan bu o'yin haqida internetdan ma'lumot yig'dim.

Shahnoza TOSHTEMIROVA,  
TDSHU xalqaro jurnalistika  
yo'nalishi talabasi

### Reklama

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

**"ORZU" OSH TUZI – YUQORI SIFAT VA KO'P YILLIK TAJIRIBA**

93 555 10 92  
93 550 10 92

Mahsulotlar sertifikatlangan

ORZU OSH TUZI

حلال HALAL



Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun

## BUYUK IXTIROLAR

## MULTFILM

## QANDAY PAYDO BO'LGAN?

Bolajonlar, siz sevib tomosha qiladigan multfilmlar qanday paydo bo'lganini, ularni kim ixtiro qilganini bilasizmi? Multfilmlar ko'p yillardan buyon jajji tomoshabinlarga – nafaqat bolalar, balki katta yoshdagi shinavandalarga ham quvnoq taassurotlar, xotiralar ulashadi, vaqtini mazmunli o'tkazishga ko'maklashadi. Bu galgi sahifamizda multfilmlar haqida qiziqarli ma'lumotlar to'pladik.



Multfilmning birinchi ko'rinishi Fransiyada paydo bo'lgan. Ilk qo'lda chizilgan multfilm "Fantasmagoriya" Emil Kol tomonidan yaratilgan. Qisqa metrajli bu multfilm so'zsiz bo'lgan. 1908-yilning 17-avgustida multfilm premyerasi Parijda bo'lib o'tadi. Ma'lumotlarga qaraganda, undan oldin 1898-yilda Jon Styuart Blekton va Albert E. Smit "The humpty

dumpty circus" nomli multfilm yaratgan. Bu multfilm yog'och qo'g'irchoqlar yordamida yaratilgan hamda kam sonli tomoshabinlar uchun namoyish etilgan.

Multfilmlar odatda, kinoteatrlarda tomoshabinlarga namoyish etish uchun, televideniye, internet orqali tomosha qilish yoki kompyuter va boshqa elektron qurilmalar ekranlarida ko'rish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Multfilmlar chizilgan, kompyuter grafikasi, plastilin hamda qo'g'irchoqlar yordamida ishlanadi. Davomiyligi bo'yicha: to'liq metrajli (odatda, 70 daqiqadan ko'p) va qisqa metrajli (10-30 daqiqa) kabi turlarga bo'linadi.

Keling, endi o'zbek animatsiyasi tarixiga nazar solamiz. 1965-yilda "O'zbekfilm" studiyasida rejissyor Damir Salimov "6x6 kvadratda" multfilmni suratga olgan. O'zbekiston kino tarixida birinchi multfilm sifatida qolgan mazkur asar qo'g'irchoqlarning mexanik harakatiga asoslangan edi.

Hozirgi kunga kelib, multfilmlar asosan kompyuter grafikasi asosida ishlanmoqda.



## YOZGI TA'TIL

(ertak)

O'rmonda yozgi ta'til boshlandi. Kunlar isib ketdi. Hayvonlarning bolalari qanchalik sho'x bo'lmasin, inlaridan chiqmay qo'yishdi. Bir joyda tura olmaydigan quyovvoy zerikib ketdi. O'rmonni kezib chiqdi, lekin birga o'ynashga birorta sherik topa olmadi. Do'stlarini chaqirdi, biroq tulki-yu tipratikan, toshbaqa-yu kiyikvoy havoning issiqligini bahona qilib, tashqariga chiqmadi.



Quyovvoy o'yga cho'mdi, "hozir o'rmon ichida hovuz bo'lganida hamma do'stlarim inlariga berkinmay, hovuzda cho'milgan bo'lardi. Nima qilish kerak?"

U shalpanq quloqlarini tik qilib, reja tuza boshladi. Xayoliga nimadir keldi chog'i, hovuz uchun qulay joy izlay ketdi. Mana, joy ham topdi, do'stlari bilan o'ynaydigan maydoncha yoniga hovuz qazisa bo'ladi. Endi bu yerga suv keltirish uchun o'rmon chetidagi ko'ldan ariq qazib kelish kerak.

Quyovvoy birinchi bo'lib hovuz qazishga kirishdi. Kuyib-pishib ish qilayotgan quyovvoni inlarida kuzatib turgan do'stlari asta-sekin tashqariga chiqib, uning yoniga keldi. Hayrat bilan birin-ketin savol bera boshladi:

- Quyovvoy, nima qilyapsan?
- Bu yerni nega qaziyapsan?
- Shu issiqda yer qazishning shartmi?
- Bu yerga hovuz qilmoqchiman, barchamiz maza qilib

cho'milamiz. Buning uchun ko'l tomonga ariq qazib, suv olib kelaman, - do'stlariga javob qaytarish asnosida shaxt bilan ishini davom ettirdi quyovvoy.

- Juda yaxshi o'ylabsan, endi issiqda qiynalmaymiz, - xursand bo'lganidan tuyoqchalarini ko'tarib, sakray ketdi kiyikvoy, - senga yordam beramiz!

- Kiyikvoy to'g'ri aytdi, hammamiz birlashsak, hovuz tez bitadi, - yordamga shaylandi tulkiyovoy.

O'rmondagi barcha hayvon bolalari quyovvoy boshchiligida hovuz qilish uchun birlashdi. Ularning ahil-inoqligi va shijoatini ko'rgan ota-onalari xursand bo'ldi va bolalariga ko'maklashishga qaror qildi. Shunday qilib, quyovvoyning rejasi o'rmon ahliga ma'qul keldi. Bundan quyovvoy juda xursand bo'ldi, charchoqlari esidan chiqib ketdi.

Ish qizigandan qizib ketdi, ko'p o'tmay, hovuz tayyor bo'ldi. Endigi navbat ko'l tomon ariq qazishga keldi. Birlashgan o'zar, deganlaridek, ko'ldan hovuzga suv oqib kela boshladi. Bu orada epchil quyovvoy hovuzga tushish uchun yog'ochlardan sirpanchiq yasadi. Buni ko'rgan do'stlari maza qilib o'ynashlari uchun turli arg'imchoqlar yasadi. O'rmon bayramona tus oldi. Quyovvoy va do'stlari maza qilib cho'mildi, arg'imchoq uchdi, berkinmchoq o'ynadi. Yozning har bir kunini quvnoq va mazmunli o'tkazdi. Ularning hammasi quyovvoydan minnatdor bo'ldi.

- Barchasi do'stlikda, - dedi quyovvoy. - Bundan keyin o'rmonni obod qilish yo'lidagi har bir ishni birgalikda bajaramiz!

- Yasha, quyovvoy, albatta shunday qilamiz!

Do'stlik, inoqlik, mehnatsevarlik sabab quyovvoy va do'stlari yozgi ta'tilni ko'tarinki kayfiyatda o'tkazdi.

Diyora FAXRUTDINOVA,  
Mirzo Ulug'bek tumanidagi

241-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi



## Bilasizmi?

Tanish yoki notanish bo'lsin, biz odamlarni doimo salomlashib qarshi olamiz. Bu o'ziga xos ehtirom va o'zaro muloqotni boshlash uchun yaxshi vosita hisoblanadi. Biroq salomlashish shunchaki madaniyat belgisi emas. Olimlar uning tarixiy zarurat ekanini ham ta'kidlaydilar. Ma'lumki, insoniyat o'z tarixining dastlabki davrlarida qabila-qabila bo'lib yashagan. Bu xavfsizlik jon saqlash nuqtayi nazaridan juda foydali edi.



# SIZ QANDAY SALOMLASHASIZ?

Har qanday odamga murojaat yoki muomala qilishdan oldin salom berish va alik olish insoniy fazilatdir.

## Qayerda qanday salomlashiladi?

- \* Misrliklarning qadimgi salomlashish usullari bugungi harbiylarning salomlashishiga o'xshab ketadi. Ular kaftlarini peshonalarga qo'yishgan.
- \* Sermulozamat fransiyaliklar do'stlari bilan har uchrashganida qo'l berib ko'rishadi yoki o'pishib qo'yadi va xuddi shu tarzda xayrlashadi.
- \* AQShda esa oddiy tarzda qo'l berib ko'rishiladi.
- \* Xitoyliklar ilgari zamonlarda bir-birlari bilan ko'rishish belgisi sifatida qo'llarini siqib qo'yishgan. Bizning davrimizga kelib, bu usuldan tinglovchilarni qarshi olayotgan ma'ruzachilar foydalanadi.
- \* Yaponiyaliklar biror kishi bilan salomlashganda ta'zim qiladi. Bu juda nazokatli va madaniyatli ko'rinadi.
- \* Kanadaliklar "burun berib" ko'rishadilar, ya'ni ular uchun bir-birini uchratganda burunlarini tekizib qo'yish odatga aylangan. Bunday salomlashish usuli shotlandiyaliklarga ham begona emas.
- \* Do'stining qo'li bilan o'zining yuzini silab salomlashish odati esa polineziyaliklarga xos.
- \* Britaniyaliklar do'stini uchratganda, "salom" deb qo'ya qoladi. Bunday sovuqonlik katta yoshli kishilarda ham mavjud.
- \* Tibetliklarning salomlashish usuli biroz g'alatiroq: ular salomlashishni bir-biriga tillarini chiqarib ko'rsatish orqali ifodalashadi.

- \* Eskimoslar esa so'rashayotgan kishilarning boshi va yelkasiga yengil musht bilan urib qo'yadilar.
- \* Afrikadagi ayrim xalqlar bir qo'lida oshqovoq uzatadilar. Ikkinchi qo'li bilan esa tirsaklarini ushlaydilar. Bu chuqur ehtirom belgisi hisoblanadi.
- \* Hindlar ikki kaftini birlashtirib va biroz egilgan holda salomlashadi.

## Bizda-chi?

Assalomu alaykum – bu o'zbek xalqi qabul qilgan salomlashish turi. "Assalomu alaykum" arabcha so'z bo'lib, sizga tinchlik, salomatlik tilayman, degan ma'noni anglatadi. Bu so'z musulmonlar o'zaro uchrashganda ishlatadigan salomlashuv iborasi sifatida qabul qilingan. Salomni qabul qiluvchi "Va alaykum assalom" ("Sizga ham tinchlik, salomatlik tilayman"), deb javob qaytaradi. Salomlashishda ma'lum qoidalar mavjud. Unga ko'ra, kichik yoshdagilar yoshi ulug'larga, ulov mingan odam piyodaga, piyoda ketayotgan kishi o'tirganga, ozchilik ko'pchilikka salom beradi. Assalomu alaykum, ko'pchilik huzuriga kirib o'tirishda ham aytiladi. Salom berganda uning samimiy va muloyim chiqishini, eshitarli bo'lishini ta'minlash lozim. Uni oshkora aytish kishilar o'rtasida muhabbat paydo etib, o'rtadagi gina va kuduratlarni ketkazadi. Assalomu alaykum deyish sunnat, javob qaytarish esa vojib hisoblanadi, deya keltiriladi axloq-odob tavsifidagi kitoblarda.

Shuningdek, xon-amirlar bilan uchrashuv (*audiyensiya*) ham salom deb atalgan. Amir, xonlarning qabulxonasi salomxona deb nomlanib, uning xizmatchisi salom og'asi deb yuritilgan. Kelinni kuyov xonadoniga kelgan birinchi kun ertalab xonadon kattalariga, yaqin qarindoshlariga ta'zimga olib chiqish marosimi yoki umuman, kelinchak ta'zimi ham salom nomini olgan.

O'zbekistondagi salomlashish harakatlari, ishlatiladigan so'zlar hududlararo biroz bo'lsa-da, farqlanadi. Lekin o'zaro aloqalarning mustahkamligi, aholining etnik jihatdan u qadar farqlanmasligi sababli keskin tafovutlar uchramaydi. Qo'l siqish, quchoqlashish, yelka olish, bir-birining tirsagini ushlab so'rashish (*ayollar orasida*) deyarli hamma joyda uchraydi. Shuningdek, erkaklar bilan erkaklar, ayollar bilan ayollar, erkaklar bilan ayollarning so'rashishida ham (*qo'l harakatlari nuqtayi nazaridan*) farqlar mavjud. Qolaversa, ikki qayta ko'rishish ham an'anaga aylanib qolgan. Ya'ni, davrlarda avval umumiy, keyin esa alohida-alohida so'rashishga o'tiladi. Har bir mehmon mezbondan, keyin o'zaro bir-biridan hol-ahvol so'rab chiqadi. Buni salomning ikkinchi qismi deb atash ham mumkin.

## Yangicha "salom"lar

Kimdir uzoq, kimdir mulozamatlardan xoli ravishda salomlashishni ma'qul topadi. Bu har bir kishining o'z ixtiyorida. Muhimi, qanday salomlashish emas, bir og'iz so'z bilan bo'lsa-da, salomlashish, biroq...

So'nggi vaqtlarda rivojlanish va ong o'zgarishi natijasi o'laroq, salomlashish an'anasida ham "mutatsiyalar" ko'zga tashlanmoqda. Bu ayrim kishilar o'rtasidagi salomlashishdagi nazokat, ehtiromning yo'qolib borayotganida, ayniqsa yoshlar orasida namoyon bo'ladi. Kundalik hayotimizda yangidan yangi salomlashish turlari paydo bo'lmoqda. Bosh urishtirish, yelkalarni urishtirish, salomlashganda nafaqat qo'l, balki oyoqlarning ham ishlatilishi shular jumlasidan. Qolaversa, ayrim yigitlarning o'ta nafislik bilan o'pishib ko'rishishlari ham atrof-dagilarga biroz erish tuyilishi mumkin. Bu harakatlar ko'p hollarda o'zaro yaqinlik, boshqalardan ajralib turish istagi bilan izohlanar, balki. Bunda boshqa xalqlar va ular madaniyatining ta'siri borligini ham inkor eta olmaymiz.

Nargiza TO'XLIYEVA,  
jurnalist

@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati  
bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING  
ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

### MUASSIS



O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MUDOFAA  
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

### Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otabek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

### Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

### ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

### Telefonlar:

kotibiyat: 71 260-36-50  
buxgalteriya: 71 260-35-20  
yuridik bo'lim: 71 260-29-41  
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova  
Sahifalovchi: Begali Eshonqulov  
Musahhih: Sayyora Meliqo'ziyeva

Buyurtma: V-5789  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 33 418 nusxa  
Bosishga topshirish vaqti: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.  
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:

100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.



t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz  
www.mudofaa.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya